

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 29-avgust
№35 (3149)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini oshirishdagi alohida xizmatlari, milliy manfaatlarimizni himoya qilish, qonun ustuvorligi va tinchlikni ta‘minlash, barqarorlik va jamoat tartibini mustahkamlash borasidagi sharaflı burchini bajarish chog‘ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgani, sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ko‘p yillik samarali mehnati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar orden va medallar bilan mukofotlansin:

I DARAJALI “SHON-SHARAF” ORDENI BILAN

Qodirov G‘ayrat Toirovich – Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i

“MARDLIK” ORDENI BILAN

Qurbonov Dostonbek Zafarjon o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi
Ismoilov Abduvoxid Salomovich – Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i

Tursunov Ikromjon Normurodovich – Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i

Yusupov Sanjar Abdulkarimovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi boshqarmasi boshlig‘i

“DO‘STLIK” ORDENI BILAN

Axmedjanov Timur Fatixovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bo‘lim boshlig‘i

Gordiyenko Oksana Mixaylovna – Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi muhim topshiriqlar bo‘yicha inspektori

Tashkulov Akbar Djurabayevich – O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri

Fazilov Botir Naimovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni boshqarma boshlig‘i

“JASORAT” MEDALI BILAN

Bo‘ronov Jasurbek Botir o‘g‘li – Surxondaryo viloyati “Ayrinom” chegara bojxona posti katta inspektori

Davronov Lazizbek Raxmonovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaz guruh komandiri-yo‘riqchi

Djalilov Rasul Abduganiyevich – Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Bekobod shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi katta yo‘riqchi-qutqaruvchisi

Ismaylov Jenisbay Aminbayevich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya mutaxassisi

Mirzaxmedov Akmal Nasridinovich (marhum) – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Ne‘matov Jasur Rustamovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh komandiri

Siddikova Mohigul Maxmudovna – Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati otryadi patrul-post xizmati inspektori

Yakubov Sobitjon Muminjon o‘g‘li – Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

“SODIQ XIZMATLARI UCHUN” MEDALI BILAN

Abduraxmanov Xasanboy Alisherovich – Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Norin tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi smena boshlig‘i

Babayev Akmal Abdulkarimovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘quv markazi boshlig‘i

Baynova Yamilya Salimyanovna – Xorazm viloyati Davlat arxivi bosh arxivchisi

Botirov Nodir Baxtiyorovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy apparati bo‘lim bosh serjanti yordamchisi

Ziyatov Asamiddin Xolmuminovich – Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

Qoryog‘diyev Laziz Norqulovich – Buxoro viloyati Bojxona boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i

Mirzaraximov Shavkatjon Joldoshovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari

Muhammadiyev Sherali Safarovich – Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti

Nosirov Abduxalil Rustamovich – Buxoro viloyati Jondor tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Sabirov Ajibay Maxametsaliyevich – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bo‘lim boshlig‘i

Sulaymanov Ulmas Nazarovich – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar bo‘limi boshlig‘i

Tadjiyev Ibragim Isakovich – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi

Tleubayev Allayar Baxtiyarovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bosh serjanti

Usanov Otabek Eshqobulovich – Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani prokurori

Xalilov Umar Muxammadovich – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus boshqarmasi guruh yo‘riqchi-qutqaruvchisi

Shodiyev Erkin Samiyevich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

Ermatov Bunyodjon Sirochidinovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassisi

Yuldashev Jonibek Zaripbayevich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh yo‘riqchi-serjanti

“SOG‘LOM TURMUSH” MEDALI BILAN

Xudaynazarov Mansurbek Baxtiyorovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy gospitali boshlig‘i

“SHUHRAT” MEDALI BILAN

Aliyev Mirazim Akmalovich – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi Milliy kinologiya markazi bo‘lim boshlig‘i

Ataxanov Dastan Kadirbayevich – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Nukus shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi yo‘riqchi-qutqaruvchisi

Ashirmatova Barno Saataliyevna – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni boshqarmasi katta ofitseri

Mavlonov Mardon Abduxamid o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Mansurova Zulfiya Saidmurodovna – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi

Murzayev Rustam Kamilovich – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasi boshlig‘i o‘rinbosari

Murodov Zoir Zokirovich – Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi G‘ijduvon tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

Narjigitov O‘tkir Arzikulovich – Toshkent viloyati Chinoz tumani ichki ishlar bo‘limi katta tergovchisi

Nurjanov Ziyodbek Erkinovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh komandiri

Rustamov Sardorbek Axmatjonovich – Andijon viloyati Andijon tumanlararo iqtisodiy sudi raisi

Rustamov Tursunboy Baxtiyorovich – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Navoiy shahar bo‘limi boshlig‘i

Suvanov Alisher Karimovich – Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Jarqo‘rg‘on tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi qutqaruvchi-yong‘in o‘chiruvchisi

Hazratqulov Zahriddin Sobirjanovich – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i

Xaydarov Muzaffar Raxmonaliyevich – Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Xudayberdiyeva Roxila Axmadovna – Navoiy viloyati sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi

Xudoyberdiyev Baxodir Abdurayimovich – Surxondaryo viloyati Angor tumani adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi direktori

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Harbiy qudratning tayanchi

TADBIRKORLAR — YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIY POSBONLARI



Vatan himoyachisi deganda odatda ko'z oldimizga egniga harbiy libos kiygan, qo'lida qurol bilan yurt tinchligini qo'riqlayotgan jasur yigitlar keladi. Ammo Vatan himoyasi bu bilan cheklanib qolmaydi. Aslida yuragida xalq va yurtga cheksiz mehr tuyg'usi bor, zarurat tug'lsa, jonini fido qiladigan, butun umrini mamlakat ravnaqi va taraqqiyotiga bag'ishlaydigan har bir inson Vatan posbonidir. Shu ma'noda tadbirkorlarni ham yurt himoyachilari safida bemalol tilga olish mumkin.

Yaqinda Prezidentimiz tadbirkorlarni kasb bayrami hamda mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi bilan qutlar ekan, har bir soha, hudud va mahallada amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlarda tadbirkorlarning ham salmoqli hissasi borligini alohida ta'kidlaydi. Milliy istiqlool bayrami bilan tadbirkorlar kasb bayramini uyg'un holda tabriklagani ham bejiz emas. Chunki **bugungi tadbirkor — Yangi O'zbekiston qudrati va taraqqiyotining tayanchi hisoblanadi.**

Mustaqillik bu faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy jihatdan ham hech kimga qaram bo'lmaslikdir. Iqtisodiy mustaqillik, avvalo, tadbirkorlarning tashabbusi, mehnati va jasorati tufayli yuzaga chiqadi. Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir islohotda, har bir hudud va mahallada ko'zga tashlanayotgan yangilanishlar zahirida tadbirkor tafakkuri va mehnati mujassam.

Hech shubhasiz, tadbirkorlik mamlakatimiz taraqqiyotining mustahkam iqtisodiy poydevoridir. Bugun tadbirkorlar qishloq xo'jaligidan tortib sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarigacha yangi ish o'rinlarini yaratmoqda, milliy mahsulotlarimizga qo'shilgan qiymatni oshirmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir mahalladagi o'zgarishlar — obod

manzaralar, yangi infratuzilmalar, savdo va xizmat nuqtalari, ta'lim va madaniy markazlar barpo etilishida tadbirkorlarning fidokorona mehnati namoyon bo'lmoqda.

Shu o'rinda yana bir muhim haqiqatni ta'kidlash joiz: agar Qurolli Kuchlar yurtimiz mustaqilligini himoya qilib, tinch va osuda hayotimizni ta'minlasa, tadbirkorlar bunyodkorlik faoliyati orqali mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlaydi. Shu ma'noda **tadbirkorlarni Yangi O'zbekistonning iqtisodiy posbonlari**, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin.

Vatan himoyasi — bu faqat harbiy xizmatchi zimmasidagi burch emas. Mustaqil davlatning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va porloq kelajagi tadbirkorning mehnati, tashabbusi va jasorati bilan ham uzviy bog'liq. Chunki tadbirkor ishlab chiqaradi — yurt iqtisodi to'yinadi; tadbirkor ish o'rinlari yaratadi — minglab oilalarning rizqi butun bo'ladi; tadbirkor oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi — xalqning ko'ngli xotirjam bo'ladi.

Hech shubhasiz, **iqtisodiy qudrat — harbiy qudratning tayanchi.** Ishlab chiqarish ko'paysa, iqtisod yuksalsa, armiyaning ta'minoti butun, qurolli kuchli bo'ladi. Demak, tadbirkorning har bir tashabbusi nafaqat bozor uchun, balki mamlakat mudofaa salohiyati uchun ham xizmat qiladi. Zero tadbirkorlik va milliy mudofaa bir tan-u bir jon, bir-biridan ayrilmas tushunchalardir.

Tarix ham bu haqiqatni tasdiqlaydi. Sohibqiron bobomiz Amir Temur aytganidek, **“Armiyasi qudratli davlat — boy bo'lur, boy davlatning armiyasi qudratli bo'lur”**. Bu so'zlar oradan asrlar o'tsa-da, o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Chunki iqtisodiy qudratsiz harbiy qudrat bo'lmaydi, harbiy qudratsiz esa mustaqil davlatning umri uzoq bo'lmaydi.

Tarix va tajriba bir haqiqatni qayta-qayta isbotlab kelmoqda: har qanday davlatning harbiy qudrati — uning iqtisodiy poydevoriga suyanadi. Korxonalar ko'payadi — iqtisod yuksaladi, sanoat rivojlanadi — armiya qudrat topadi, qishloq xo'jaligi barqaror bo'ladi — yurtning xavfsizligi mustahkamlanadi. **Milliy iqtisodiyot**

— bu nafaqat xalq farovonligi, balki milliy xavfsizlikning ham eng ishonchli kafolati.

Har bir tadbirkorning tashabbusi — yangi ishlab chiqarish, yangi texnologiya, yangi mahsulot — bu faqat iqtisodiy natija emas. Bu yurt mudofaa salohiyatini kuchaytiradigan qo'shimcha qudratdir. Chunki mahalliy ishlab chiqarilgan har bir texnika, qurilish materiali yoki oziq-ovqat mahsulotining bir qismi tabiiy ravishda armiya ehtiyojlariga ham xizmat qiladi.

Shuning uchun tadbirkor qo'lidagi har bir startap, g'oya, sarmoyaning har bir so'mi mudofaa devoriga qo'yilgan mustahkam bir g'ishtdir.

Shu nuqtayi nazardan qaranganda, tadbirkorlik iqtisodiy yuksalish vositasi bo'lish bilan birga milliy xavfsizlikka xizmat qiladigan vatanparvarlikdir.

Baralla aytishimiz mumkinki, **tadbirkorning har bir tashabbusi, ishga tikkan sarmoyasining har bir so'mi — yurt mudofaasiga qo'shilgan hissa. Shu ma'noda tadbirkorlik iqtisodiy vatanparvarlikning eng oliy ifodasidir!**

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildan buyon har yili 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti an'anaga aylangani muhim ahamiyatga ega. Bu uchrashuvlarda tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalar atroficha muhokama qilinadi, ularning fikr va takliflari asosida muhim qarorlar qabul qilinadi. Shu kunga qadar ochiq muloqotlarda tadbirkorlar tomonidan bildirilgan minglab taklif va tashabbuslar qonun hamda qarorlarda o'z ifodasini topgani buning yaqqol dalilidir.

An'anaga muvofiq, joriy yilning 20-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi va bir guruh fidoyi ishbiarmonlarga yuksak davlat mukofotlarini topshirdi.

Kutilganidek, mazkur muloqotda davlatimiz rahbari tadbirkorlar va iqtisodiy soha vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni chuqur o'rganish asosida ishlab chiqilgan, ularning faoliyatiga yanada keng imkoniyat va qulayliklar yaratishga qaratilgan qator yangi yechimlarni ilgari surdi.

Aytish joizki, bugun yurtimizda mudofaa tizimida xususiy sektor ishtiroki kun sayin kengaymoqda. Qishloq xo'jaligi tadbirkorlari armiyaga sifatli va sarmahsul oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib bermoqda. Mudofaa sanoatida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar armiyani zamonaviy jihozlar, texnika

ehtiyot qismlari va maxsus kiyim-kechak bilan ta'minlamoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi tadbirkorlar milliy armiya uchun intellektual dasturlar, dronlar va sun'iy intellekt yechimlarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Shuningdek, xususiy sektor armiyaning tezkor harakatlanishi va uzluksiz ta'minoti uchun zarur zamonaviy infratuzilmalarni barpo etishda ham muhim rol o'ynamoqda.

Demak, **tadbirkor — bu faqat iqtisodchi yoki investor emas, u yurt ravnaqining poydevori, milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, ayni paytda Vatan himoyachisi hamdir.**

Ya'ni kimki yangi-yangi korxonalar ochsa, odamlarga ish va daromad manbai yaratasa, ichki bozorni milliy mahsulotlar bilan to'ldirsa, dunyo bozoriga eksport qilib, valyuta tushumi oshishiga hissa qo'shsa, soliq to'lab davlat g'aznasini to'ldirsa — bu inson haqiqiy vatanparvar emasmi?!

Oxirgi yillardagi salmoqli yutuqlar — yurtimizda zavod va fabrikalarning ishga tushishi, “Made in Uzbekistan” tamg'asi bilan dunyo bozorlariga chiqishimiz, milliy eksport hajmining oshib borishi — ularning barchasi tadbirkorlik ruhi kuchayganidan dalolatdir. Prezidentimiz: **“Biz katta marralarga faqat tadbirkorlik ruhi bilan yetishimiz mumkin”**, deya bejiz ta'kidlamadi.

Shu bois ham tadbirkorlik oddiy iqtisodiy jarayon emas, balki milliy taraqqiyotning g'oyaviy asosiga aylanmoqda. Bu bizga Prezidentimiz ilgari surgan ulug' haqiqatni eslatadi: **Yangi O'zbekiston — kuchli iqtisodiyot va kuchli ma'naviyat uyg'unligidir!** Chunki bugun dunyo ham iqtisodiy, ham geosiyosiy raqobat maydoni. Bu maydonda g'alaba qozonish uchun esa yangi zamon qahramonlari kerak. Va bu qahramonlar — tadbirkorlardir! Ular qurgan zavodlar, amalga oshirayotgan ulug'vor loyihalar, qishloq va shaharlarda yaratgan yuz minglab ish o'rinlari — xalqimiz farovonligi oshishiga, mamlakatimiz nufuzi yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Ularning har bir yutug'i — xalqimizning g'alabasi.

Ularning har bir tashabbusi — yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi yangi qadam. Shu bois baralla ayta olamiz:

tadbirkorlik — bu iqtisodiy vatanparvarlik!

Tadbirkorlik — bu yurtga sodiqlik va millatga xizmat qilishning eng oliy ifodasi!

**Olimjon O'SAROV,
mudofaa vazirining
vatanparvarlik targ'iboti,
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
hamda yoshlar masalalari
bo'yicha maslahatchisi**

Mardi maydonlar



Qo'shinlarimizda qo'yilgan har qanday jangovar vazifalarni tezkor, aniq va o'z vaqtida bajarishda havo-desant bo'linmalari alohida ajralib turadi.



Bu Sharqiy harbiy okrugga qarashli "Farg'ona" dala-o'quv maydonida azamatlar ishtirokida olib borilgan navbatdagi parashyut bilan amaliy sakrash mashg'ulotlarida ham o'z aksini topdi.

Albatta, egniga sharaf va g'urur ramzi bo'lgan harbiy libosni kiygan, zimmasiga Vatan tinchligini saqlash, xalq osoyishtaligini ta'minlashdek ulug'vor mas'uliyatni olgan yurt posbonlari hamisha izlanish va o'rganishda. Ular bir soniya bo'lsin bu yo'ldan tolga emas. Yigitlar kasbining mohir ustalaridan yo'nalishlar bo'yicha sir-asrorlarni chuqur o'rganib kelmoqda. Muhimi, qalbida Vatanni asrab yashab kelayotgan bahodirlar bilimlarini, ko'nikma va tajribalarini murakkab hamda mashaqqatli vazifalarda yanada oshirib kelmoqda.

Aytish kerakki, yurt posbonlari ko'plab mashqlarda parashyutni boshqarish, muvozanatni ushlash, yerga to'g'ri qo'nish ko'nikmalarini hosil qildi. Ushbu mashg'ulotlar parashyut trampinida harakatlanish, yerga to'g'ri qo'nishni o'rganish trenajyori kabi o'quv joylarida o'tkazildi. Boldir bo'g'inlarini (oyoq mushaklarini) mustahkamlash yo'lagida desantchilar turli joylarga, turli sharoitlarda qo'nish bo'yicha mashqlarni bajaradi. Albatta, bu sanab o'tilgan mashqlar to'kka chiqquncha bo'ladigan topshiriqlarning ayrimlari xolos. Biroq eng muhimlari, desak, adashmagan bo'lamiz. Chunki ma'lum balandlikdan yerga tushishda uning taktikasini yaxshi bilmaslik ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Qisqasi, desantchi ushbu nomga to'laqonli loyiq bo'lguncha haqiqiy sinovlardan o'tib, mashg'ulotlarda har tomonlama toblanib, sirlarni egallab, ana shundan keyin bulutlar kezib yurgan bepoyon kengliklarini zabt etadi.

– Desantchining xizmat faoliyatidagi eng muhim voqealik

parashyut bilan amaliy sakrashdir, – deydi podpolkovnik Adham Nuriddinov. – Ungacha esa mard o'g'lonlarimiz aniq algoritimga asoslangan bir qancha tayyorgarlik bosqichlaridan o'tadi. Bunda dastlabki ko'nikmalardan biri parashyutni to'g'ri yig'ishdir. Shu boisdan ham har bir harbiy xizmatchidan parashyut bilan bo'ladigan munosabatga jiddiy ahamiyat qaratishni talab etamiz. To'g'ri, ming martadan ortiq parashyut bilan sakraganlar bo'lishi mumkin. Ammo tajribasi ko'p bo'lishiga qaramay, ayni bosqichlarga ilk martadek diqqat qaratish lozim. Chunki havoda xatoni to'g'rilashning iloji bo'lmaydi. Demak, oyog'ingiz yerdami, unda hammasi o'z qo'lingizda – barchasini ko'rsatilganidek bajarishga majbursiz. Aks holda, yutqazasiz.

Haqiqatan ham desantchi ayniqsa parashyutni taxlashda aslo shoshilmasligi kerak. U har bir bosqichni sinchkovlik bilan amalga oshirishi shart. Diqqat bilan kerakli vazifani bajarishi uning navbatdagi muvaffaqiyati hisoblanadi. Demak, ushbu jarayonlarda kishining hayoti o'z qo'lida bo'ladi. O'ylab qaralsa, bu katta mas'uliyat. Qolaversa, uning gardanida Vatan tinchligiga qalqon bo'lishdek sharaf ham bo'lsa, u ikki karra mas'uliyatni his etadi.

Aytish kerakki, Sharqiy harbiy okrugga qarashli desantchilar harbiy qismida harbiy xizmatchilarning parashyut bilan amaliy sakrashgacha bo'lgan tayyorgarlik mashg'ulotlarini olib borish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu esa ularning qo'lga kiritayotgan natijalarida ham o'z aksini topmoqda. Chunki qancha qulaylik bo'lsa, muvaffaqiyat eshiklari shuncha keng ochiladi. Faqat kishi undan unumli va sifatli foydalana olishi kerak.

– Desantchi faqat parashyut bilan amaliy sakrashni o'rgansa, shu bilan barchasi yaxshi bo'ladi, degani emas, – deydi kichik serjant Shahzod Aminov. – U bu yo'nalishning barcha sir-asrorlarini ham chuqur o'rganish barobarida havoda qurolni qo'llash, vaziyat taqozo etadigan bo'lsa, nishonlarni yakson etish yo'llarini ham bilishi kerak. Ha, havoda turib, nishonni yo'q qilish kerak. Ko'nikmalar shunchaki egallanmaydi, tinimsiz izlanish va o'rganishni talab etadi bu jarayon. O'zganing bilimi bilan imtihon topshirishga kirib bo'lmaydi-ku, to'g'rimi? Demak, tajribalar ham qiyinchiliklar ortidan oshiriladi. Faqat

YAXSHI TAYYORGARLIK



YAXSHI NATIJA Keltiradi



Kapitan Orifjon MAMAJONOV



to'siqlardan qaytib qolish kerak emas. Aksincha ulardan kuch olish kerak. Aslida kishida xohish bo'lsa, barchasini uddalay oladi. Buni shaxsan boshimdan o'tkazganman. Masalan, ilk bor parashyut bilan sakraganimda aniq yerga halokatli qo'naman, deb o'ylagandim. Lekin unday bo'lmadi, bo'lmasin ham. Tepada turib, yer qayg'usini chuqur tortib yubordim. Lekin qanchalik pastlaganim sari qalbimda isyon qilayotgan qo'rquv ham shuncha kamayib, o'zimga bo'lgan ishonch yanada ortgandi. Yillar o'tdi, tajribalar to'pladik. Endi o'sha lahzalar kulgili tuyuladi. Ammo har safar kichik bo'lsin, vazifaga kirishishdan oldin yurak bir tipirlab oladi. Bu tabiiy holat aslida.

Harbiy xizmatchilar faqat tekis va qulay joyda desant ishlarini olib bormaydi. Ular holat va topshiriqqa ko'ra, parashyut bilan amaliy sakraydi. O'zi umuman, shaxsiy tarkib qachon desantlashtiriladi? Albatta, bu bevosita jang taktikasiga bog'liq. Demak, noto'g'ri desantlashtirish amalga oshirilsa, buning oqibati ham shunga yarasha bo'ladi.

Sakrash oldidan so'nggi tayyorgarlik ko'rish chizig'ida saf tortgan yurt o'g'lonlarining ust-boshi, anjom-aslahalari va zarur vositalari komandir tomonidan birma-bir ko'zdan kechirildi. Eng asosiysi, Vatan qalqonlarining ruhiy holatiga ham jiddiy ahamiyat qaratiladi. Chunki insonda keladigan barqaror holat o'z muvozanatini yo'qota boshlasa, qancha ko'nikmaga ega bo'lmasin, u xatolarga yo'l qo'yadi. Yetakchilar shuning uchun ham shaxsiy tarkib bilan ishlashda ularni o'zini tutishi, vazifalarga yondashishi, hatto qadam tashlashiga ham diqqat qaratadi. Maqsad – qo'yilgan topshiriq a'lo bajarilsin.

– Qo'rquvsiz inson bo'lmasa kerak, – deydi kichik serjant Nodirbek Muhammadjonov. – Faqat uni to'g'ri boshqarishni bilish kerak xolos. Shunda ko'zlangan marra sizniki bo'ladi. Qolaversa, bu tayyorgarlikdagi natijalarni ham baholash imkonini beradi. Ya'ni o'zingizning nimalarga qodir ekaningizni bilib olasiz. Shaxsan men har safar ko'kka chiqqach, yuragim bir o'ynab oladi. Berilgan vazifani bajara olamanmi, parashyutim aytilgan soniyada ochiladimi, qisqasi, miyamda adog'i yo'q savollar paydo bo'ladi. Holbuki, ularning ayrimlariga javoblarim tayyor. Biroq baribir o'sha o'ylar qurshab oladi. Aslida bu har bir desantchining o'ylari. Bilsangiz, yutish yoki yutqazish yonma-yon turadi. Faqat siz uni o'z qo'llaringiz bilan tanlab, o'zingizga tortib olasiz. Yaxshi tayyorgarlik yaxshi natija keltiradi.

Amaliy mashg'ulotlar ham boshlandi. Havo transporti qo'nish maydonchasiga kirib keldi. Harbiy xizmatchilar berilgan buyruqdan so'ng birma-bir o'z joylarini egalladi. Dvigatel kuchayib, parraklar qattiq aylana boshladi. Yerdan ballonlari uzilgan "temir qush" ko'k bag'rini yorib, bulutlar oralab borardi. Balandlik oshib, belgilangan joyga yetib olingach, sakrash ishorasini beradigan maxsus chiroq yonib-o'cha oshladi. Keyin eshik ochilib, ilk harbiy xizmatchi qo'llarini ko'ksiga yopishtirdi-yu, pastga – bulutlar orasidan uzuq-yuluq ko'rinib turgan yer tomon parashyut bilan sakradi. Bir necha soniyalardan so'ng parashyut kuchli bosim ichida ochildi. Keyingi o'g'lon ham uning ortidan oshiqdi. Shu zayl azamatlar topshiriqlarga kirishdi.

Moviy gumbaz bir ko'z yumib-ochguncha parashyut bilan uchib kelayotgan harbiy xizmatchilarga to'lib ketdi. Komandirlarning ko'zlarida paydo bo'lgan hadik ularning qalblarida kechayotgan jamiki hislarni oshkora namoyon etib turardi. Chunki bu yerda nafaqat vazifalar bajarilyapti, balki ichgan qasami tomirlarda to'lib-toshyapti. Harbiy xizmatchilar esa mutaxassis o'laroq navbatdagi natijalarni qayd etmoqda.

– Qulochimni keng yoysam, ucha olamanmi?
– Yo'q.

– Shamol kerakmi?
– Burchni his etish kerak.

Bugun qushlarni ortda qoldirib, o'z ruhini to'yintirib, topshiriqlarni ado etayotgan Sharq o'g'lonlari 600, 1 200 metr va 3 000 metr balandlikda parashyut bilan amaliy sakrab, o'z mahoratlarini yana bir bor oshirdi.

Aytgancha, "Sharq" desantchilar bazasi qoshida tashkil etilgan "Sharq burgutlari" jamoasi yoshlari ham mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Mazkur jamoa a'zolari professional instruktorlar rahbarligida parashyut bilan sakrash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtiradi. "Sharq burgutlari" a'zolari nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'ladi, balki jismoniy tayyorgarlik, jasorat, qat'iyat va jamoada ishlash madaniyatini ham shakllantiradi.

Albatta, havo desant bo'linmalari milliy armiyamizning tirgagi, mamlakatimizning ishonchli qalqonidir. Eng sara mard yigitlar saralab olingan ushbu bo'linmalarda o'g'lonlar tun-u kun nazariy va amaliy mashg'ulotlarda toblanadi. Yerdan ko'kka, ko'kdan yana yer tomon talpinib yashaydi. Vatanning qalqoni o'laroq mashg'ulotlarda natijalarini ko'paytirib boraveradi.

**Kapitan
Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**

Amaliy o'quvlar



HAR YURAK YURT TINCHLIGI DEB URISHI KERAK

Har qanday erishilgan natija ungacha bo'lgan mehnat, o'qib-o'rganishlar mevasi hisoblanadi. Shunday ekan, hech qachon bir joyda to'xtab qolish kerak emas. Kasbining sir-asrorlarini chuqur o'rganish orqali yuksaklikka erishiladi. Aslida professionallik ham mana shundadir.

ko'ksini qalqon qilish uning farzandlik burchi ekanini teran anglatyapmiz. Asosiysi, har bir yurak yurt tinchlighi uchun to'lib-toshib uryapti.

Albatta, har bitta qadam qalbdan kelgan buyruq bilan uyg'unlashsa, u maqsadli harakatga aylanadi.

Har qanday vazifaning muvaffaqiyati shaxsiy tarkibni boshqarayotgan komandirga bog'liq. Agar yetakchi salohiyatli va topqir, vaziyatni to'g'ri baholay olsa, natija albatta yuqori bo'ladi. Bo'ysunuvchilar birdamlik bilan harakat qiladi. Yakun esa



Katta leytenant Ahadjon JABBOROV

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli dala-o'quv maydonlarida shaxsiy tarkib bilan o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar ham Vatan posbonlarining yangicha jang olib borish qobiliyatlarini yanada mustahkamlash, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'quvlar davomida guruhning yaqin masofada jang olib borish, belgilangan nishonlarni yakson etish bo'yicha ham imkoniyatlari sinovdan o'tkazildi. Aytish kerakki, bunday yondashuvlar azamatlarning o'zi va jamoasiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, qo'yilgan vazifalarni ado etish borasidagi tajribalarini yanada orttiradi.

Yana bir muhim jihat. Mashg'ulotlarda Vatan posbonlarining mavjud qurollardan nishonlarni yakson etish borasidagi harakatlari ham baholandi. Guruh hamda o'qotar qurollarning imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda topshiriqlar tez, aniq va sifatli ado etildi.

Bir o'q, bir nishon. Bu tamoyil kun-u tun yurt tinchlighini ko'z

qorachig'idek asrab-avaylab kelayotgan azamatlarning shiori. Bu o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda ham yaqqol namoyon bo'ldi.

– Dala-o'quv maydonida biz o'z imkoniyatlarimizni sinovdan o'tkazib olamiz, – deydi podpolkovnik Sarvar Ahmedov. – Ungacha esa nazariy bilimlarni egallab, taktik harakatlarni tahlil etamiz. Aslida nazariya va amaliyot uyg'unlashtirilsa, kutilgan natijaga erishiladi. Shu boisdan ham ikkisini bir-biriga bog'lagan holda – parallel olib boramiz. Ayniqsa, harbiy xizmatni endi boshlagan safdoshlarimiz uchun bu muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular ham o'qitilyapti, ham ko'nikmalari shakllantirilmoqda. Bilasizmi, qachon harbiy xizmatchi professional bo'ladi? Qachonki sharoit va muhit tanlamay berilgan vazifaga kirishib, uni kutilganidek uddalay olsagina, u kasbining ustasi sanaladi. Ana shundan kelib chiqib, bugun biz shaxsiy tarkib bilan o'quv mashg'ulotlarini muntazam olib borish orqali ularning kasbiy bilimlarini yuksaltirishga erishyapmiz. Vatan uchun hamisha

Vatanning koriga yarash, uning xavfsizligini ta'minlash, xalq osoyishtaligiga mas'ul ekanini his qilish – bu chin fidoyilik belgisi.

– Harbiy xizmat bu shunchaki egniga harbiy libosni kiyib yurish emas, – deydi kichik serjant Abdullo Umaraliyev. – Bu o'zligingni anglash, nima uchun yashayotganingizni his qilish hamdir. Uyda oilamning xotirjam bo'lishi, osoyishta tunlarni kunga ulashi – asosiy maqsadim. Demak, men oilam timsolida xalqimning xotirjamligiga mas'ulman. Ishoning, o'quvlar bizni matonatli bo'lishga, irodamizni mustahkamlashga xizmat qiladi. Safdoshlarimiz yuqori natijaga erishsa, albatta siz ham ular turgan pog'onaga talpinasiz. Balki, bu havasdir. Lekin ana shu muvaffaqiyatga ilhom baxsh etadi. Qadamlaringiz tezlashib, o'rganishga kirishasiz. Intilish orqali kasbning ustasiga aylanassiz. Qisqasi, quyosh tig'imi, cho'lmi, izg'irinmi yoki dovulmi – bu biz tanlagan yo'lda to'siq bo'lolmaydi. Chunki yuqorida aytganimdek, maqsadimiz – oilalar hamisha xotirjam tong ottirsin.

kutilganidan-da a'lo baholanadi. Demak, komandirlarning salohiyati faqat bir tomonlama bo'lishi kerak emas. Ta'bir joiz bo'lsa, u devor ortida nima bo'layotganini ham ko'ra olish qobiliyatini oshirib borishi lozim. Qisqasi, o'tkazilgan ushbu o'quvlarda harbiy xizmatchilarning ana shu sifatlarini yanada shakllantirishga ahamiyat qaratildi.

Vatan ishq lablardan hamisha to'kilib turgan maydonda o'qlar nishon tomon uchadi, qumlar oyoqlardan to'kilib tushadi, ko'zlar qat'iyatdan charaqlab boqadi. Ha, shimoldagi azamatlar, kerak bo'lsa, mijja qoqmay ham tunni tongga ulaydi. Yo'q, bu shunchaki bedorlik emas, u chin muhabbat – yurt taqdirini o'z taqdiri deb biluvchilarning muqaddas ishq. Bu ishq esa hech qachon chegara bilmaydi. U minnatsiz fidoyilik asosida quriladi. Egniga kiygan libosga munosib bo'lishga har nafas harakatda bo'lganlarning qadam tovushlaridan-da yangrab sado chiqaradi bu ishq kuyi.

Sh. SAIDOV

Sarhisob

Yurtimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ma'naviyat va ma'rifat masalasi jamiyat hayotining eng muhim ustunlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularning qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tashabbuslar tahsinga loyiq. Shu jihatdan "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining hamisha amal qilib kelayotgan bir an'anasi – ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va ular orqali keng jamoatchilikka ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni yetkazish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MILLIY RUHNI YUKSALTIRUVCHI TANLOV



Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori hamda mudofaa vazirining tegishli buyrug'i ijrosi doirasida tahririyat tomonidan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi. Shular jumlasidan **"Jadidlarning ma'naviy qahramonligi"** nomli publitsistik maqolalar tanlovi ham o'ziga xos ijodiy maydon bo'ldi. Tanlov milliy ozodlik harakati va jadidlar faoliyatining ma'naviy merosini harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda yoshlar ongiga singdirish, shu orqali milliy ruh va vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishni maqsad qilgan.

Tanlovning muhim jihati shundaki, unda nafaqat yozuvchi va jurnalistlar, balki turli sohalaridagi olimlar, harbiy xizmatchilar hamda mustaqil tadqiqotchilar o'zining tahliliy maqolalari bilan ishtirok etdi. Bu esa tanlovga yangicha ruh bag'ishlab, uning tarbiyaviy va ma'naviy qimmatini yanada oshirdi. Haqiqatan ham, jadidlarning millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga

olib chiqish, milliy davlat va farovon jamiyat qurish g'oyasi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shu ma'noda maqolalarda ilgari surilgan fikr va mulohazalarning zamonaviy tahlil uslubida bayon etilgani, yangi qarash va xulosalar taklif qilingani tanlovning ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

2025-yilning 10-apreldan 10-avgustigacha davom etgan tanlovda **30 dan ortiq** ijodkordan jami **100 ga yaqin** maqola qabul qilindi. Shulardan **16 muallifning 29 ta maqolasi** "Vatanparvar" gazetasining turli sonlarida chop etildi. **Bu, birinchidan, tahririyatning ijodkorlarni rag'batlantirishga qaratilgan siyosatini ifodalasa, ikkinchidan, jadidlar merosini keng targ'ib qilish borasida o'ziga xos hissadir.**

Nihoyat tanlov g'oliblarini e'lon qilish, faol ijod ahlini rag'batlantirish fursati yetdi. Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, 1-o'rinni filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidov egalladi. Ikkinchi o'ringa Alfraganus universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc) Normurod Avazov munosib ko'rildi. Uchinchi o'rin esa ikki muallif – Oriental universiteti dotsenti v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sanjar Ahmedov va kichik serjant Abbosxon Safaraliyev hamda pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD) Farrux Abbosovga nasib etdi.

– "Vatanparvar" gazetasi tomonidan jadidlar bo'yicha o'tkazilgan tanlov, yuzlab sara materiallarni harbiy xizmatchilarga taqdim etilayotgani meni nihoyatda quvontirdi, – deydi tanlov g'olibi, filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidov. – Bilamizki, millatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy qo'shin tuzish va uning ta'minoti masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'p bor ta'kidlagan. Mudofaa vazirligi nashri bo'lmish "Vatanparvar" gazetasining bu yo'ldagi faolligida men ana shunday buyuk va ulug'vor istak ro'yobini ko'rdim. "O'zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman" degan jumlanini aytish ma'rifatparvarlarga armon bo'ldi. Bugun o'sha so'zni harbiy xizmatchilarning baralla ayta oladi. Bu aslida eng katta baxt.

Bundan tashqari, tanlovda munosib ishtirok etgan ijodkorlar – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi O'rolboy Qobil, tibbiy xizmat leytenanti Ahrorxo'ja

No'monxo'jayev hamda jurnalist Jahongir Xoliqov rag'batlantiruvchi mukofotlarga loyiq deb topildi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu tanlov orqali ma'rifatparvar bobolarimiz hayoti va faoliyati yanada keng targ'ib etildi, ularning ma'naviy qahramonligi zamonaviy yoshlar uchun ibrat maktabi sifatida namoyon bo'ldi. Eng muhimi, harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ongida milliy o'zlikni anglash, boy tariximizdan g'ururlanish, Vatanga muhabbat bilan xizmat qilish tuyg'usi yanada mustahkamlandi.

Fursatdan foydalanib, barcha g'olib va sovrindorlarni, gazetamizning chin muxlislarini aziz Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik shodiyonasi bilan samimiy muborakbod etamiz!

TAHRIRIYAT

Ortga qaytmas islohotlar

INSON QADRI UCHUN

Milliy armiyamiz mudofaa qudrati har bir jabhada o'z aksini topsagina yurt osoyishtaligi barqaror ta'minlanadi. Ana shu barqarorlik sharaflı burchini o'tayotgan Vatan himoyachilari timsolidan tortib zamonaviy qurol-aslahalar, harbiy qismlar va shaharchalar, sohani kadrlar bilan butlovchi ta'lim muassasalari – ularning barcha-barchasida mujassamlashib, takomillashib borayotgani e'tiborga loyiq. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yillik bayrami arafasida bu holat amalda o'z isbotini tiopayotgani quvonarli.



Ko'plab vatandoshlarimizga davlat mukofotlarining topshirilishi, harbiy qism va muassasalarda yangi binolarning qad rostlashi bayram tantanalarining shukuhini yanada oshirayotganidan dalolat beradi. Qisqa qilib aytganda, bayram tantanalari har bir sohaga, har bir xonadonga kirib kelmoqda.

Jumladan, tinchligimiz posbonlari hisoblangan Vatan himoyachilari ham bahramand bo'layotganini ta'kidlash o'rinli. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida joylashgan harbiy qismda ham yangi shtab binosi, o'quv sinflari, ma'naviyat markazi, zamonaviy sport zali foydalanishga topshirildi.

Binolarning tantanali ochilish marosimida Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i polkovnik Po'latjon Sativaldiyev, Sariosiyo tumani hokimi Abduqodir Donayev, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy qism shaxsiy

tarkibi hamda jamoatchilik faollari ishtirok etdi.

An'anaga ko'ra, dastlab saf maydonida O'zbekiston bayrog'i sarbaland ko'tarilib, davlatimiz madhiyasi yangradi. Shundan so'ng so'zga chiqqanlar harbiy qism shaxsiy tarkibi va tantanaga yig'ilgan barchani mustaqilligimizning 34 yillik bayramiga tuhfa sifatida qad rostlagan binoning foydalanishga topshirilishi bilan chin dildan muborakbod etdi. Sariosiyo tumani hokimi Abduqodir Donayev o'z nutqida Vatanning har bir qarichi muqaddasligini, uni ko'z qorachig'idek asrash er yigitning sharaflı burchi ekanini ta'kidlab o'tdi. Ana shu yo'lda tun-u kun mas'uliyatni his qilgan holda xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarga tuman va butun respublikamiz aholisi nomidan minnatdorlik bildirdi.

Shundan so'ng harbiy qism komandiriga yangi inshootning

ramziy kaliti topshirildi va bino oldiga tortilgan tasmlar olqishlar ostida kesildi. Mehmonlar bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi. O'zbekiston mudofaa qudratini mustahkamlashga omil bo'luvchi bunday binolar hali ko'plab qad rostlashiga ishonch bildirildi. Ochilish marosimiga kelgan mehmonlar harbiy qism hududida joylashgan yodgorlik oldida Alisher Salimov, Shermuhammad Ashirov, Sayyor Sadinov, Mahmudjon Jalilov, Bobur G'aniyev, Elomon Otajonov, Ulug'bek Barnoyev singari er yigitlarni hurmat bilan yodga oldi.

– Xizmat faoliyatimni mamlakatimizning ko'plab hududlarida o'tkazganman, – deydi bosh serjant Akmal Qosimov. – Hozirda bu sharaflı vazifamni yurtimizning janubiy sarhadlarida davom ettiryapman. Men bu yerga kelib Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishning haqiqiy ma'nosini teran anglab yetdim,

desam, adashmagan bo'laman. Chunki Sariosiyoda joylashgan harbiy qism haqida gapirilganda barchamizning ko'z o'ngimizda Vatan tinchligi yo'lida jonini fido qilgan qahramonlarimiz siymolari gavdalanadi. Harbiy qismimizda Sariosiyo va Uzun voqealarida halok bo'lgan mard o'g'lonlar xotirasi uchun o'rnatilgan yodgorlikni bir ko'zdan kechiring-da! Men aytgan gaplarning to'g'riligiga ishonch hosil qilasiz. Xarsangtosh va vertolyot parragi. Shuning o'ziyoq muqaddas zaminimiz uchun qon to'kkan yigitlarning jasoratidan so'zlab beradi. Har safar yodgorlik qarshisiga kelib, bu unsiz hikoyani qayta-qayta tinglayveraman. Ularning Vatanga sadoqat bilan porlagan ko'zlari jasorat madhiyasini kuylagandek, bizlarni shijoat-la kuzatib turganday bo'laveradi...

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

Bunyodkorlik

SARDOBADA BAYRAM TUHFASI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida mudofaa ishlari bo'limi eski binosi o'rnida yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi.

1963-yilda qurilgan muassasa bugunga kelib ikki qavatli ko'rkam qiyofada, zamonaviy andazalar asosida jihozlangan o'quv mashg'ulot, navbatchilik, chaqiruv punkti, ma'muriyat va boshqa 18 xonaga ega mudofaa ishlari bo'limi binosi bilan qayta chiroy ochdi. O'lis tumanda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek xayrli maqsadga xizmat qiladigan ushbu bunyodkorlik namunasini foydalanishga topshirish marosimida harbiylar, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi, viloyat hokimligi mutasaddilari, davlat va jamoatchilik vakillari hozir bo'ldi.

Tadbirda Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni, viloyat hokimining birinchi o'rinbosari, nuroniylar barchani Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan zamonaviy ko'rinish kasb etgan inshoot bilan samimiy tabrikladi. Bu maskan yurt koriga

kamarbasta farzandlar, jonajon Vatanimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga qodir harbiylarni yetishtirib chiqarishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, milliy armiyamiz kuch-qudrati, unda yaratilayotgan keng imkoniyatlar, yoshlarning barkamol ulg'ayishida olib borilayotgan islohotlar haqida to'xtaldi.

– Yakuniga yetgan yilda tuman mudofaa ishlari bo'limi tomonidan 100 nafar yigit muddatli va 50 dan ortiq navqiron o'g'lon kontrakt bo'yicha muqobil harbiy xizmatga chaqirilgan, – deydi viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik B. Bekmurodov. – Milliy armiyamizning ostonasi bo'lgan bu bino yurt posbonlarining xizmat samaradorligini oshirishga katta yordam beribgina qolmay, harbiy


xizmatchilarning malakasini oshirish va ularga zamonaviy texnologiyalar va usullar bilan tanishish uchun muhim maydon bo'ldi. Bu yerda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zida jamlagan qulay sharoitlar sardobalik chaqiriluvchilarni sifatli tibbiy ko'rikdan o'tkazish, armiyamiz saflarini har tomonlama sog'lom yoshlar bilan butlashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu muassasa mamlakatimiz mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy xizmatchilar uchun zarur sharoitlarni yaratish va faoliyati samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Qolaversa, harbiy xizmatchilarning kasbiy ko'nikmalarini yuksaltirish va o'quv

mashg'ulotlarini yuqori darajada tashkil etish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Tadbir ishtirokchilari zamonaviy binoda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Yaratilgan qulayliklarga ijobiy baho berib, tuman hokimligi va quruvchilarga minnatdorlik bildirdi.

Leytenant Bekzod OBLOQULOV,
Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati katta ofitseri



Marafon

SOG'LOM HAYOT UCHUN

Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan Ohangaron shahri markazida Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan harbiylar ishtirokida "Sog'lom hayot uchun 5 000 qadam" marafoni tashkil etildi.



Erta tongdan yosh-u qari harbiy orkestr kuyi jo'rligida davlatimiz bayrog'ini baland ko'tarib, "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida ommaviy yurish marafonida birdamlikda ishtirok etdi. Salomatlik aksiyasida yuzlab vatandoshimiz sog'lom turmush tarzini tanlaganini targ'ib etib, barchani ushbu tadbirda faol ishtirok etishga undadi. Shundan so'ng tadbirlar Ohangaron shahridagi maktabda harbiy-vatanparvarlik

ruhidagi yoshlar festivaliga ulandi. Tadbirda shahar hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, Toshkent viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi vakillari, bir guruh harbiy xizmatchilar, 500 ga yaqin yosh, maktablarda faoliyat yuritayotgan "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari va chaqiruvga qadar

boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi qatnashdi.

Qurolli Kuchlar faxriylari harbiy sohaning mashaqqatli va sharafliligi haqida so'zlar ekan, globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab

sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ta'kidlandi. Kelgusida harbiy xizmatchi bo'lish istagidagi yoshlar uchun davlatimizda faoliyat yuritayotgan harbiy ta'lim muassasalari haqida ma'lumotlar berilib, ularga o'qishga kirish tartibi hamda ta'lim yo'nalishlari xususida so'z bordi. Harbiy sohaga qiziqish bildirgan yoshlarning savollariga batafsil javob berildi.

Tadbirda harbiy orkestr jamoasining Vatan madhini tarannum etgan kuy va qo'shiqlari, faxriy qorovul vzwodining saf elementlari bilan ko'rgazmali chiqishlari tadbirga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati



MUSOBAQA KUBOGINING YANGI EGALARI

Markaziy harbiy okrug "Forish" tog' poligonida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida "To'maris izdoshlari" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi o'tkazildi.



Unda Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy okrug va qo'mondonliklar, muassasa va birlashmalarda faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchi ayollardan iborat 8 ta jamoa ishtirok etdi.

Musobaqa nizomiga muvofiq, jamoalar PM hamda AK-74 avtomatidan amaliy otish mashqini bajarish, 800, 400, 200, 100 metr masofaga estafeta tayoqchasi bilan yugurish, dala sharoitida turli mevalardan foydalangan holda, karving san'atini namoyish etish, erkin uslubda 50 metr masofaga suzish, pichoq uloqtirish, saf tayyorgarligi, harbiy-tibbiy, shuningdek zukkolik shartlarida bellashdi.

To'rt kun davomida har bir jamoa kuch va irodasini namoyish etgan holda bahs olib bordi hamda yuqori natijalarni ko'rsatdi. Ayniqsa, harbiy xizmatchi ayollarning amaliy otish mashqini bajarish davomida ko'rsatgan natijalari tahsinga sazovor. Mazkur shartda kichik serjant Bibigavhar Po'latbayeva 93 ball bilan eng yuqori natijani qo'lga kiritdi.

Shuningdek, saf tayyorgarligi shartida jamoalar qo'shiq aytgan holda, saf maydonidan o'tishdi. Taktik-tibbiy tayyorgarlik shartida esa jamoa a'zolari yaradorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish elementlarini bajardi. Bahslar davomida harbiy xizmatchilardan jamoa bilan jipslikda harakat qilish talab etildi. Shu bilan birga ko'rsatilgan tibbiy yordamning qay darajada to'g'ri ekani ham hakamlar hay'ati tomonidan nazorat qilib borildi.

Musobaqa ishtirokchilarini Mudofaa vazirligi markaziy apparati mas'ul ofitserlari, soha mutaxassislari va hamkor tashkilot vakillari shaffoflik bilan baholadi.

– Ushbu tanlovning bosh maqsadi, harbiy xizmatchi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, harbiy jamoalarda ularning o'rni va nufuzini oshirish, iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun sharoit yaratishdan iboratdir, – deydi Mudofaa vazirligi mas'ul ofitseri podpolkovnik Boburjon Valiyev. – Shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini Vatanimiz, xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma'naviy merosimizga hurmat va





sadoqat ruhida tarbiyalash, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlarida ko'maklashish ham muhim omillardan hisoblanadi. Shu sababdan tanlov shartlarida ushbu jihatlarga alohida urg'u qaratilgan. Qolaversa, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, faol va tashabbuskor ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularga o'z aql-zakovatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish va o'zaro sog'lom raqobatni shakllantirish, jamiyatda ayollarni ijtimoiy faolligini oshirish hamda xotin-qizlar manfaatlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni tizimli yo'lga qo'yish va munosib rag'batlantirish ham tanlovning bosh g'oyalaridan biri sanaladi.

Musobaqa keskin, shiddatli bahslarga boy bo'ldi. Har bir jamoa g'oliblik uchun astoydil ter to'kdi. Jarayonlar davomida qatnashchilar o'zining g'alabaga bo'lgan ishonchi, yuqori intellektual salohiyati, ma'nan va jismonan chiniqqanini namoyon etdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, "To'maris izdoshlari" ko'rik-tanlovida 3-o'rinni Markaziy harbiy okrug, 2-o'rinni Toshkent harbiy okrugi, 1-o'rinni Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasi qo'lga kiritdi.

– Biz g'oliblik uchun astoydil kurashdik, – deydi kichik serjant Bibigavhar Po'latbayeva. – Oxirgi yillardagi natijalarimizdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bu yilgi musobaqada jamoamizdagi o'sishni kuzatishingiz mumkin. Chunki so'nggi yillardagi yutuqlarimiz ikkinchilik bilan yakunlanayotgan edi. Endilikda esa kubok biz bilan ketadigan bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishim lozimki, qo'mondonligimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlardan kelib chiqqan holda kelgusi musobaqalarda ham natijalarimizni yanada yaxshilab borishga harakat qilamiz.

G'olib jamoa diplom, qimmatbaho sovg'a hamda musobaqa kubogini qo'lga kiritdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



“SAMARQAND”, “OYINA”, “BEHBUDIYA”

(hujjatli esse)

Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy asos solgan va biz nomlarini sarlavhada keltirgan har bir ezgu amalni jadid bobolarning ma'naviy qahramonligiga isbot sifatida keltirish avlodlar zimmasidagi vazifadir.

Birinchisi, “Samarqand” gazetasining nashr etilishi. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy mazkur nashrning o'z davridagi ahamiyati haqida “El-u xalqning ko'zini ochishga bois bo'ldi”, deb bejiz yozmagandi. Mahmudxo'ja Behbudiy noshirligi va muharrirligida chop etilgan mazkur nashr haqiqatan ham milliy matbuotimiz tarixida betakror o'rin egallaydi.

Albatta, 1906-yildan 1907-yilgacha Toshkentda chop etilgan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat” kabi gazetalarining mustamlakachi siyosatiga to'g'ri kelmagani sabab yopiladi. Yana barcha ziyolilarning kuni “Turkiston viloyatining gazetasi”ga qoladi va uning jadidlar harakatiga qarshi chiqishlari ko'paygach, Behbudiy Samarqandda xususiy gazetasini ochish harakatini boshlaydi. Turli xil bahonalar bilan uning arizasi rad etiladi. Maqsadiga erishish uchun besh yillik qog'ozbozlig-u sarsongarchiliklarga duchor bo'ladi. Bu haqda uning safdoshlaridan biri Sadriddin Ayniy “1908-yildan o'z idorasida biron gazeta chiqarmoq fikrig'a tushub, 1913-yil aprel oyinda bu maqsadig'a yetishub “Samarqand” gazetasining bir necha raqamini chiqarishga muvaffaq bo'lg'on”ini yozib qoldiradi.

Abdulla Avloniyning fikriga kelsak, darhaqiqat “Samarqand” o'zidan avval chiqqan nashrlardan farq qiladi. Bunda Behbudiyning matbuot sohasidagi to'plagan, xususan Toshkentdagi nashrlarga yo'l berilmaslik sabablari o'zining “Turkiston viloyatining gazetasi”dagi maqolasi tufayli tazyiqqa uchratandagi tajribalari qo'l kelgan.

Gazetaning o'zgachaligiga birinchi dalil shuki, bu kungacha hech bir nashr uch tilda chiqqan emas. O'z davrining taraqqiyparvari va donishmandi bo'lgan Behbudiy gazetani faqatgina o'zbek tilida chiqarib, forscha so'zlashadigan

xalqlarni ham e'tibordan chetda qoldira olmasdi. Rus tiliga munosabatda esa boshqa jadidlar bilan yakdil edi: bosqinchini tilini, u orqali dilini, maqsadini, qonunlarini bilmasdan uni yengib bo'lmaydi.

“Samarqand” jaridasi o'zbekiy, forsiy va rusiy tillarida va Turkistonning o'rta shevasinda ta'xis etilib turib edi. Bundan maqsad shul ediki, Bahri Hazardan boshlab, janubdagi Afg'oniston fasili, Amu nahri o'rtasindaki vase arosig'a sokin turk va tojik birodarlarimizg'a bir qadar toqat xidmat etmak va alarni holig'a va ijobati asriya, vaqoyi zamoniyada va Rossiya kulturi, ilmi, hunari va sanoatg'a oshino bo'lishlarig'a ojizona tashviq etmoqdin iborat edi. Maktab bo'lsun, madrasa bo'lsun, isloh va taraqqiysig'a yordam uchun xalqni da'vat etmoq edi. Fosid urf va botil rasmlarni, yomon odatlarni shar'an islohiq'a ko'shish etmoq edi”, deb yozadi Behbudiy.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY Sharq-u G'arb tushunchasidagi muharrirning vazifasini bemalol bajardi. Ayniqsa, o'zining qalamiga mansub maqolalarda muharrir nuqtayi nazari bilan qarab, qisqa va lo'nda shaklda yozganini ko'ramiz. “Tahsil oyi”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?”, “Ehtiyoji millat” kabi ko'pgina maqolalari fikrimizga dalildir.

“Samarqand”da Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin singari yana ko'plab zamonasining yetuk ma'rifatparvarlari o'z ijodi bilan ishtirok etishga aynan muharrir da'vati sabab bo'ldi.

Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov.

Nashr nimasi bilan va qaysi yo'nalishlarda el-u xalqning ko'zini ochdi, dersiz. Gazetada mustamlaka iskanjasida turib bo'lsa-da, millat bolalarini o'qitib, o'zligini tanitib, ma'rifat vositasi-la ozodlikka erishish g'oyasi targ'ib etildi. Bu yo'lda gazeta jamoasi barcha turdagi axboriy, tahliliy, badiiy va hatto hajviy materiallari bilan ma'rifat nurini tarqatib turdi.

“Samarqand” gazetasining ilk soni birinchi sahifasi Registonning viqorli surati bilan (o'sha davrda tahririyatga qanchalik qimmatga tushmasin) bezatiladi: **“Kimligimizni bilishni istasangiz, biz qurgan imoratlarga qarang!”** Faxrlanish bilan birga buyuk bobokalonimiz Amir Temur barpo etgan qudratli davlat nega shu ahvolga tushib qolganining tub mohiyatini tahlil qilib chiqdi.

Behbudiy gazetada millat uchun biron-bir ibrat bo'larli voqea haqida yozilsa, undan saboq olish lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Jumladan, “Samarqand” gazetasida Ummon mamlakati musulmonlari “Jam'iyat ul-ittifoq” nomli tashkilot tuzishgani, u yoshlarni o'qitish uchun pul to'plashga qaror bergani haqida yozilarkan, xabar oxirida “Turkiston va Buxoro uchun ibrat” degan qayd qistirib o'tiladi.

“5-avgustda Yangi Chorsu mahallasidagi choyxonada Abdulfattoh boybachchani noma'lum kishilar tafangcha ila otub qochubdurlar. Maqtul otasidan qolgan ko'b mollarni safohat yo'lida sarf qilib, yomon odamlar ila qo'shulushub yurgan ekanki, yomon rafiqalari bukun o'zining boshig'a balo bo'libdi.

Idora:

Agarda otasi o'qutsa edi, bolasi balo bo'lmas edi”.

Hoynahoy, muxbir odamlardan fikr to'plab, yangilikka o'z munosabatini qo'shgan, ya'ni bu fikr o'ldirilgan shaxsni bilgan kishilardan olinib, umumlashtirilgan. Lekin muharrir munosabati yuqoridagi munosabatdan ustundir:

“Agarda otasi o'qutsa edi, bolasi balo bo'lmas edi”.

Bu fikr zamirida faqat bir boy bolasininggina emas, balki bir paytlari qudratli kuchga ega bo'lgan Turkiston davlati tanazzulining sababi ham aytilgan.

“SAMARQAND” GAZETASIDA “Musulmon sinematografiyasi”, “Yangi maktablar”, “Muslimalar uchun maktab”, “42 xonali maktab haqida”, “Kafkaz musulmonlarida ruscha tahsil” singari qator yangiliklarning aksariyati mustamlakada ezilgan avomni ma'rifatli xalqqa aylantirish, shu yo'l orqali ozodlikka erishish maqsadida yozilgandir.

Shunday xulosa kelib chiqadiki, yangiliklar jadid matbuotida sobiq sho'ro davridagidek, yashirilib, mavhum va umumiy so'zlarga “o'rab” yozilmagan, balki G'arb jurnalistikasidagidek, demokratik tamoyillarga tayangan, lekin milliy manfaatlar unutilmagan holda mushtariylarga yetkazilgan. Qisqasi, jadid bobolar amaliyoti bugungi demokratik jurnalistikamizga muayyan ma'noda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Gazetaning 45-soni chop etilgach, uning o'rniga “Oyina” jurnali nashr etila boshladi va bu Turkistonda jurnal chop etish tajribasini ham Mahmudxo'ja Behbudiy boshlab berganini ko'rsatadi. **“Jarida va**

majallalar millatni taraqqiy ettiruvchi bashariyat ixtirosidir, degan edi u.

Abdulla Avloniy *“Bu jurnal “Oyina” chiqquncha chiqqon jurnallarining eng birinchi va yaxshisi edi”*, deya baho beradi.

Gazetadan farqli o'laroq, jurnal matbaa korxonasiga topshirilishidan ikki kun oldin chop etishga tayyorlangan materiallarni harbiy senzura keltirib, o'qitib, ruxsat olish muharrir zimmasiga yuklanadi. Buning qog'ozdagi ko'rinishi yuqorida ta'kidlangan arxiv hujjatlarida saqlanmoqda. Bu orada “Turkiston viloyatining gazetasi” “Oyina”da chop etilgan fikrlarga qarshi chiqishlarni ko'paytiradi. Ehtiyot choralari shu darajada ko'rilgan bo'lsa-da, jurnalda bu gazetada chiqishlarga qarshi qarashlar berib boriladi. Masalan, “Turkiston viloyatining gazetasi”da mustamlakachilar tomonidan mahalliy xalq “sartlar” deb atalishi va missioner N. Ostroumov asoslariga e'tiroz bildirilgan “Sart so'zi majhuldir” maqolasi fikrimizga dalildir.

Jurnal sahifalari davrning yangicha yashashga ishtiyoqmand, ozodlik orzudiga ziyolilar uchun fikr aytish maydoniga aylandi. Abdurauf Fitrat, Saidrizo Alizoda, Tavallo, Siddiqiy-Ajziy, Hoji Muin, Mahmud Tarziy, Sadriddin Ayniy singari ko'plab taraqqiyparvar ijodkorlar qalami shu nashrda sayqal topdi.

Jurnalning dovruqi yetti iqlimga yetmagan bo'lsa-da, uni Rossiya va yaqin Sharq davlatlari musulmonlari mutolaa qilgani to'g'risida ma'lumot bizgacha yetib kelgan. *“Oyina” Turkistondan boshqa Totoriston, Kofkoz, Afg'oniston, Eron, Turkiya va Misrgacha tarqalar va har yerda suyi o'qilur edi*.

“Oyina” jurnali faqat Turkistonda emas, balki Rossiyaning musulmonlar yashaydigan boshqa o'lkalarida ham mashhur bo'lgan. Bu fikrda ishonarli asoslar bor. Zero Behbudiy hajdan qaytgach, birinchi bo'lib tatar matbuotiga, xususan G'aspiralining “Tarjumon”iga obuna bo'lib, muntazam uni o'qigani haqida aniq dalil bor. “Oyina”ning nomlanishini ham Behbudiy havas bilan ulardan olgan bo'lishi mumkin. Lekin ikki tilda chiqishi bo'yicha yagona ekanini ham ta'kidlab o'tish joiz.

“OYINA” JURNALI A8 hajmida 24 bet bo'lib chiqqan. Muharrirning 32 sahifada chiqarish niyati ham bo'lgan. U jurnalning 18-sonida shunday qisqa e'lon beradi: *“Oyina” majallasini 32 sahifada chiqarmoqchimiz. Aning uchun muhtaram mushtariylarni yor-u do'stlaridan mushtariy topmoqlari umid qilinur*. Lekin Behbudiyning bu niyati ham amalga oshmagan. Sababi shuki, u umid qilgan miqdorda obunachilar ko'paymagan. Jurnal shu zaylda, ya'ni 24 sahifada haftalik chiqishini bir yil davomida kanda qilmagan. To'g'ri, 1-ilova soni bilan 2-son o'rtasida ikki oydan ko'proq vaqt bor. Lekin ikkinchi sondan boshlab, obunachilarga 52 ta son jurnal haftalik bo'lib yetib borgan.

“Oyina” ikkinchi yil uchun yetarli mushtariy yig'a olmaydi. Shu bois Behbudiyning safdoshlaridan biri Siddiqiy “Turkiston jaridali”

sarlavhali maqolasi bilan chiqadi. Unda Siddiqiy yerli xalqning gazeta o'qimasligi, o'qiydiganlari ham negadir chet el matbuotini o'qishlarini, aslida esa **“O'z doxiliy dard va alamlarini da'vo qilmoqqa tavsiya qiladurg'on maqolalarga qaramoq, yoralarig'a malham, ranjlariga iloj va kamliklarini tuzatmoq borasidan bahs qilguvchi va biz uchun o'qulmog'i lozim jarida yerli Turkiston jaridali”** ekanini o'kinib yozadi.

Mazkur maqolaga “Oyina” tahririyati tomonidan izoh ham yozilgan bo'lib, unda Behbudiyning ovozi eshitgandek bo'lamiz. Uni Siddiqiy yozgan maqolaga javob sifatida ham qabul qilishimiz mumkin. Bir dalil. Siddiqiy Turkiston xalqining gazeta va jurnal o'qimaganining asosiy sababi jang maydonlaridan batafsil hikoya yozilmasligidan, deb ayrim mushtariy fikrini beradi. “Oyina” unga javoban **“To'g'risi, muhtaram xalqimizning mahalliy matbuotg'a iltifot etmaganlaridur. Agarda ahli mutolaa va taraqqiyparvar yoshlar himmat va jaridalar nashrig'a g'ayrat etmasalar, matbuotimizni so'nmog'i muqarrardur”**.

“Oyina”ning 52-sonida yuqoridagi murojaat natijasi haqida “Idoradan” sarlavhali maqoladan bilib olamiz: *“Oyina” muharririning asab xastaligi ziyodalashgani uchun hamda mushtariy ozayib, adadi 300 ga tushgani va idora mudirlarining iltifotsizliklari sababli “Oyina” yotqurilmog'i 49-raqamda yozilib edi. Ammo muhtaram ba'zi xonanda va maorifxoh ahli Vatandan dastalari ila maktub va telegraf ila muharrirdan yotqurulmaslikni iltimos etganliklari uchun “Oyina”ni chiqarib turmoqqa qaror berildi. Ammo mushtariyini ozligidan mehnati ozaymasa ham zarari ozaysun deb birinchi noyabrda “Oyina” uch daf'a chiqarilur*”.

“Oyina”ning chiqqan sonlari haqida birinchi ma'lumotni Sadriddin Ayniy yozgani uchun undan iqtibos keltiramiz: *“Oyina” majallasining bir necha raqami 1331-yil shavvol oyida (1913, avgust) chiqib, 1333-yil sha'bon 15 gacha davom qilgon (1915, 15-iyun). Bu muddatda 68 raqamda 1 720 sahifalik “Oyina” chiqq'on*”.

“Oyina” haqiqatan ham o'z nomiga yarasha ish olib bordi. Bo'lib o'tgan va sodir bo'layotgan, shuningdek kutilayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini doim bildirib turdi. Muharrir jurnalga maqola yozishlarini millat ziyolilaridan surab

turdi. Nashr taxlamlarini ko'zdan kechirarkanmiz, unda bir talay mualliflar qatnashganini ko'ramiz. Xususan, Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Sa'id, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadriddin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzodalar qalamiga mansub ko'plab maqolalar, she'rlar “Oyina”ning ommalashuviga sabab bo'lgan. Bunda Behbudiyning ham eng sara maqolalari chop etilgan. “Ikki emas, to'rt til lozim” (1-son), “Millatni kim isloh etar?” (12-son), “Favqulodda takfir” (12-son), “Bizni hollar va ishlar” (13-son), “Oh, bonklar bizni barbod etdi” (19-son), “Yoshlarga murojaat” (21-son), “Sart so'zi majhuldir” (22, 23-, 25-, 26-sonlar), “Tiyotr nadur?” (29-son), “Tanqid saralamoqdur” (31-son), “Ichgulikning zararlari” (36-son), “Turkiston tarixi kerak” (38-son), “Vatanparvarlik kerak” (43-son), “Ismoilbek hazratlari ila suhbat” (49-son), “Ismoilbek hazratlari” (50-son) kabi keng tahlilli maqolalari, tarix va geografiyaga oid “Sherdor madrasasi” (1-son), “Ulug'bek rasadxonasi” (3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-sonlar), “Yer” (10-, 13-, 18-sonlar), “Tarix va jug'rofiya” (27-, 28-sonlar), “Sayohat xotiralari” (34-, 35-, 37-, 38-, 39-, 40-, 41-, 42-, 43-, 44-, 45-, 46-, 47-, 48-, 49-, 50-, 52-, 53-sonlar) kabi publitsistik asarlari shular jumlasidandir.

MA'LUMKI, jurnal jurnalistikasi bilan gazeta jurnalistikasi orasida muayyan farqlar mavjud. Behbudiyning muharrirligida chiqqan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini qiyoslaganda ularning o'ziga xosligi saqlanganini, ya'ni ikki nashr ham o'zining zimmasidagi vazifani bajarganini anglaymiz. “Oyina”da yozilgan maqolalarning hajmi kengroq, chuqur tahlilli va albatta, xabarlar “Samarqand” gazetasiga nisbatan kam.

Jurnalga xos maqolalarda Behbudiyning yuqorida sanalgan publitsistik asarlari bilan birga “Turk davlati na uchun mag'lub bo'ldi?”, “Hayot va g'oyi' hayot” (Abdurauf Fitrat), “Taraqqiy va taranniy” (3. Futuhiddin), “Tarixi ixtiroyi bashar — odamlarning chiqargan nimarsalari”, “Adab va tarbiyat” (Muhammad Sa'id) kabilarni misol keltirish mumkin.

“Oyina” jurnalini, xususan uning muharrir va noshirini ham turli yo'llar bilan ta'qib qila boshlaydi. Masalan, Turkistondagi mavjud urf-odatlar, yangicha jadid maktablari, o'zgarishlarni o'rganayotgan missioner G. Andreyev Behbudiy va

uning “Oyina”si haqida ketma-ket ikki maqola yozadi. Birinchi maqolada u Behbudiy bilan suhbat qurib, unga “turetskiy targash” sifatida ism qo'yadi. Ikkinchi maqolasida esa “Oyina”ning 1915-yil 1(53)-sonini batafsil o'z nuqtayi nazari bilan sharhlaydi va “zerikarli” maqolalarga to'la jurnal ekanini aytadi. Qisqasi, muallif Behbudiyning publitsistik hamda muharrirlik faoliyatiga past nazar bilan qaraganini anglash mumkin. Missionerdan o'zgacha muomala kutish ham qiyin edi, chunki ular o'zlarini Turkistonga “madaniyat keltirgan” insonlarmiz deb o'ylashardi.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY noshirlik ishiga qo'l urgan tadbirkorlardan biridir. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan tanilgan xususiy nashriyotda biz kitobni ham, gazeta, jurnal va hatto xaritalarni ham nashr qilib tarqatganini ko'ramiz. Masalan, uning qalamiga mansub “Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya” kitobida ko'p vazifalari qatorida noshirligi xususida ham yozuvlarni o'qishimiz mumkin: *“Al-hoji Mahmudxo'ja Behbudxo'ja xatib o'g'lini jam va nashri, yana sohibidur”*. Yana bir asarida *“Muharrir va noshir Samarqand dorilqazo muftiylaridan Abu Mas'ud Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja xatib”*, deya ta'kidlanadi. O'zining ko'pgina kitoblardan tashqari, Fitratning “Sayyohi hindi” kitobining o'zbekcha va ruscha nusxalariga ham noshirlik qilgan.

“Behbudiya” nomida uning kutubxonasi, ba'zi manbalarda “Kutubxonayi Behbudiy” ham o'z davrida mashhur edi. Dunyo ko'rgan alloma, albatta, bobolar tajribasidan, bugun G'arbni taraqqiyotga eltgan bunday bilim o'choqlaridan o'rganib gubernator ruxsati bilan Samarqandda kutubxona ochdi. Kitoblarning aksariyatini u xorijiy safarlardan olib keldi. Uning safarnomalari kitob xaridi va ularning Samarqandga yetkazilishi bo'yicha alohida to'xtalgan. Unga Said Rizo Alizoda, Hoji Muin, Hoji Baqo, Abduqodir Shakuriy singari safdoshlari ko'mak berdi. Kutubxonadagi diniy va albatta, ilmiy, dunyoviy kitoblar, majalla va ro'znomalar, ensiklopedik lug'atlar, xarita va atlaslardan tashrif buyuruvchilar, Behbudiy tili bilan aytganda, xonandalar o'qib foydalandi. Mazkur bilim o'chog'ini xorij tajribasida bo'lganidek 14 soatlik muddatga ochib qo'ydi. Albatta, millat rivojiga tish-timgo'i bilan qarshi bo'lgan mustamlakachi mahalliy xalq orasidan “tarbiyalagan” qadimchilar bu joyni “kofirxona” deb e'lon qilgani ham bor gap.

Kutubxonaga kelgan kishilarga o'qishga sharoit yaratilgani, hatto tekinga choy va kofe berilgani haqidagi rivoyatlar xalq xotirasida qolgan.

ALQISSA, “Samarqand”, “Oyina”, “Behbudiya” nomlari bilan mashhur bo'lgan gazeta, jurnal, nashriyot-u kutubxona millat rivoji uchun beqiyos xizmat qildi. Millat uchun qilingan bu kabi ibratli ishlar jadidlar ma'naviy qahramonligining haqiqiy misolidir.

Halim SAIDOV,
filologiya fanlari
doktori, professor



“ARMIYA “MEN” DEGAN TUSHUNCHAMNI “BIZ” GA O‘ZGARTIRGAN”

– Bo‘ldi, kelishdik! Ertaga o‘zim tahririyatingizga o‘taman...
– Xafa bo‘lmaysiz, yig‘inda ba‘zi muammolar chiqib qolgandi...
– Murojaat bilan chiqib ketgandim. Savollarni yuborib qo‘ying...
– Ishdan ortib o‘tolmayapman. Mahallaga kelsangiz, bir piyola choy ustida bafurja gaplashardik...
Quyida sizga havola etilayotgan suhbatimiz gazeta sahifasiga joylanguncha ana shunday jarayonlarni boshdan kechirgan.

Kundan kun dunyo miqyosida yuksalib borayotgan milliy armiyamiz jangovar saflarida Vatan tinchligi yo‘lida xizmat olib borgan harbiy xizmatchilar yetarlicha. Ana shunday qahramonlarimizdan biri iste‘fodagi podpolkovnik Asqar Bo‘riyevdir. U kishi butun umrini ona Vatan himoyasiga bag‘ishlab, xizmati davomida jasorati, mehnati bilan hamkasblariga namuna bo‘lgan. Qaror qabul qilishdagi qat‘iyatlili, qiyin sharoitlarda ham shijoat bilan harakat qila bilishi tufayli ko‘plab yosh harbiylarni tarbiyalab, ularning yuragida jasorat tuyg‘usini uyg‘otgan.

Asqar Bo‘riyev nafaqaga chiqqach ham faolligini yo‘qotmadi. U zamonaviy avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tarixiy merosni yoshlarga yetkazish, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini tashkil qilishda faol ishtirok etmoqda. Qahramonlik va fidoyilik haqidagi xotiralari bilan yoshlar qalbidagi yurtga sadoqat, elga mehr tuyg‘usini mustahkamlab kelmoqda.

Bugun u nafaqat tajribali harbiy sifatida, balki ziyoli inson, mehribon ustoz sifatida ham jamoatchilik orasida katta hurmat qozongan. Keling, hozir gapni ko‘p cho‘zmasdan qahramonimizni suhbatga chorlasak-da, qolganini uning o‘zidan eshitsak.

– **Asqar aka, armiyaga qadam qo‘yganingizdagi shaxsiy hayotingiz va dunyoqarashingiz bilan hozirgi tajribali, nafaqadagi hayotingizni qiyos qilsangiz, eng katta o‘zgarish nimada bo‘ldi?**

– Ismim Asqar bo‘lgani uchun amakilarim “sen askar bo‘lasan” degan ma’noda askar deya chaqirardi. Dadam ham Boyqo‘ng‘irdagi kosmodromda shifokor bo‘lib xizmat qilgan. Uydagi muhit va amakilarimning askar deya chaqirishlari shu sohaga qiziqishimning asosiy sababi, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Maktabni tamomlab, Qozon oliy harbiy komandirlik-muhandislik bilim yurtining Raketa qo‘shinlari yo‘nalishiga hujjat topshirib, orzum tomon odimlay boshlaganman.

Birinchi marta armiyaga qadam qo‘yganimda yosh, hayotni sodda ko‘radigan yigit edim. Shaxsiy hayotimda ham ko‘proq o‘zim va yaqinlarim haqida o‘ylar, kelajakka

ishonch bilan qarardim. Lekin armiya mening dunyoqarashimni butunlay o‘zgartirib yubordi.

Yillar davomida u menga sabr-toqatni, qiyinchiliklarni yengib o‘tishni, rahbarlik va jamoada ishlashni o‘rgatdi. Shaxsiy hayotimda ham katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Avval faqat o‘z oilam haqida o‘ylasam, keyinchalik butun millat, yurt tinchligi va kelajak avlodning taqdiri haqida qayg‘ura boshladim. Armiya “men” degan tushunchamni “biz”ga o‘zgartirdi.

Hozir nafaqada bo‘lsam-da, har bir o‘tgan yilni ortga qarab tahlil qilaman. Bir paytlar yigitlik shavqi bilan xizmat qilgan bo‘lsam, bugun hayotimda osoyishtalik va minnatdorlik tuyg‘ulari ustuvor. Armiya menga faqat xizmat tajribasini emas, balki butun umr falsafasini o‘rgatgan.

Hayotimning armiyadan avvalgi va keyingi davrini qiyoslasam, mendagi eng katta o‘zgarish – bu insoniylik, burch va yurtga sadoqat hislarining mustahkamlanganida. Shu bois hozir nafaqada bo‘lsam-da, o‘zimni hanuz xizmat saflaridagidek his qilaman.

– **Harbiy xizmat davomida shaxsiy qarashlaringizni, fe‘l-atvoringizni yoki hayotga munosabatingizni tubdan o‘zgartirgan voqea yoki insonlar bo‘lganmi?**

– Turkmaniston harbiy qismlaridan birida xizmat olib borayotgan davrimda O‘zbekiston mudofaa vaziridan qism komandiri nomiga telegramma keldi. Unda men Vatanimga qaytmoqchi bo‘lsam, vazifamni davom ettirishim uchun sharoit yaratib berilishi haqida aytilgan edi. Biroq o‘sha paytda yurtimizda aynan men ixtisoslashgan soha yo‘qligi uchun Rossiya Federatsiyasida xizmatimni davom ettirish maqsadida ariza yozib qo‘ygandim. Xabarni eshitgach, nima qilishimni bilmay, qotib qoldim. Vatanimga qaytsam, boshqa soha odamiga aylanishimga to‘g‘ri kelardi. Qolishim esa o‘zim tanlagan sohada davom etish imkonini berishi mumkin edi.

Shu ikkilanishdan boshim garang bo‘lib, bir qarorga kelolmay, uyga qaytdim. Vaziyatni ayolimga tushuntirganimdan so‘ng biroq



o‘yga toldida, qat‘iyat bilan: “Nima bo‘lganda ham ota yurtga qaytamiz. Boshqa yurtida qancha shart-sharoit yaratib berilmasin, erta tongda tinch uyg‘onib, o‘z yurtimizning havosidan to‘yib nafas olishga yetmaydi”, deya fikrimdan qaytargan. Ayol kishi hayotda erkakni qanchalar to‘g‘ri yo‘lga yetaklay olishini o‘shanda bilganman. Uning ana shu so‘zlari men uchun burilish nuqtasi bo‘lgan va hayotimni, maqsadimni umuman o‘zgartirib yuborgan.

O‘zbekistonga qaytganimdan so‘ng Kattaqo‘rg‘on shahrida joylashgan divizionda artilleriya sohasi bo‘yicha xizmatimni boshlaganman. Ushbu yo‘nalish bir-biridan ancha farq qilgani bois boshida biroz qiynalganman. Ammo barchasini yengib o‘tib, yaxshi kadr bo‘lib yetishdim, deb o‘ylayman.

– **Harbiy tayyorgarlik jarayonida, ayniqsa ofitserlik faoliyatida, qaysi xatolarni o‘zingizda yoki tizimda ko‘rgansiz va ularni qanday to‘g‘rilash mumkin, deb o‘ylaysiz?**

– Faoliyatim davomida bir qancha xatolarni boshdan kechirganman va ularni vaqtida tushunib, yechimlar ishlab chiqqanman. Misol uchun, komandir lavozimida xizmat qilgan

vaqtlarimda shaxsiy tarkibga uyga ketish vaqtlarida ham ruxsat bermasdan, vazifa qo‘ygan paytlarim bo‘lgan. Bilmadim, bu shunaqa kasallik bo‘lganmi.

Ba‘zida dam olish vaqtlarida ham topshiriq yuklaganman. Buning natijasida ular oilasiga kam vaqt ajratardi. Uyiga xuddi mehmondek borib kelishardi. Xato ish yuritayotganimni sezganimdan so‘ng shaxsiy tarkib bilan boshqacha ishlash yo‘liga o‘tganman. Navbatchilikdan chiqqan harbiy xizmatchilarga ortiqcha topshiriq qo‘ymasdim. O‘zlariga belgilangan vazifani bajarishi bilan uyiga ruxsat berib yuborardim. Shaxsiy tajribamdan kelib chiqib shuni bildimki, harbiy xizmatchi qachonki oilasi tinch bo‘lsa, o‘ziga qo‘yilgan vazifani sidqidildan, xayoli bo‘linmagan holda bajaradi. Agarda oilasida muammo bo‘la turib xizmatga jalb qilinsa, u na vazifani to‘g‘ri bajaradi va na xotirjam bo‘ladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilarning oilaviy sharoitiga e‘tibor berish lozim.

Bugungi kunda ham armiyamizda yuqoridagi kabi muammolar uchrab turadi. Ba‘zi harbiy qism komandirlari ham shaxsiy tarkib bilan ishlashni yaxshi bilmaydi. Qo‘l ostidagilarga xizmatdan bo‘sh vaqtlarida ham topshiriqlar berib turishga urinadi. Vaholanki, nizomda harbiy xizmatchilarning xizmatga jalb qilinish va dam olish vaqtlari belgilab qo‘yilgan. Ammo ko‘pchilik ushbu qoidaga amal qilgisi kelmaydi. Yuqorida aytganimdek, bu narsa komandirlarga tekkan kasallikmi, bilmayman. Bunday holatlar harbiy xizmatchilarning oilaviy muhitiga jiddiy ziyon yetkazadi. Ular farzandlarining tarbiyasiga yetarlicha vaqt ajratolmaydi. Alaloqibat oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajrimlar kelib chiqadi.

Yuqoridagi kabi muammolarni to‘g‘rilash uchun, birinchi navbatda, boshliqlar, komandirlar qo‘l ostidagilarni nizomda belgilangan tartibda xizmatga jalb qilishi, oilasiga vaqt ajratishiga sharoit yaratib berishi kerak. Axir ota-bobolarimiz bekorga “Oilang tinch, sen tinch” deyishmagan. Zero sog‘lom va tinch oila – mustahkam armiyaning poydevori.

**“Vatanparvar” muxbiri
leytenant Mansurbek
JABBOROV suhbatlashdi.**

Soʻz jangchilari

Jahon tarixida koʻplab harbiy toʻqnashuvlar, urushlar boʻlib oʻtgan. Ikkinchi jahon urushi insoniyat uchun misli koʻrilmagan salbiy jarayonlar bilan kechgan eng dahshatli tarixiy voqelik hisoblanadi.

Urush natijalari hozirgi kungacha dunyoning geosiyosiy holatiga bevosita taʼsir koʻrsatayotganini qayd etish joiz. Urushning oqibatlarini, xususan millionlab qurbonlar, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, maʼnaviy-ruhiy zoʻriqishlar va boshqa salbiy holatlar insonlar qalbidan oʻchmaydi.

Bugun jahon miqyosida roʻy berayotgan globallashuv sharoitida ulardan toʻgʻri xulosa chiqarish janglarda insonlar tomonidan amalga oshirilgan qahramonliklarni koʻrsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidan dunyo xalqlari boshiga behad ogʻir musibatlar keltirgan eng dahshatli urush sifatida joy oldi. Urush 1939-yilning sentabrida boshlanib, 6 yil davom etdi. Millionlab oilalarning tinchligi va halovati buzildi, bolalar yetim qoldi. Urushga yaroqli erkaklar frontga joʻnadi. Oilalar boquvchisiz qoldi. Bu urush dunyodagi 61 ta davlatni va Yer yuzi aholisining 80 foizini, yaʼni 1,7 milliard kishini iskanjasiga tortdi.

Ikkinchi jahon urushi davridagi sinovli yillarda sobiq Ittifoq tarkibida boʻlgan har bir respublika qatori oʻzbekistonliklar ham jang maydonlarida va front ortidagi mashaqqatli kunlarni boshdan kechirib, gʻalabaga katta hissa qoʻshdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xotira va qadrlash kuniga bagʻishlangan bayram tadbirida “Avvalo, oʻz jonini ona yurt uchun qurbon qilgan vatandoshlarimizning ruhi poklari oldida bosh egib, taʼzim qilamiz. Sizlar kabi minglab urush va mehnat fronti qatnashchilarining – azm-u shijoatli, dovyurak ota-bobolarimiz, sabr-matonatli onalarimiz, momolarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz”, deb taʼkidlagan edi. Xalqimizning bunday shijoatini oʻrganish va yosh avlodga yetkazish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim oʻrin tutadi.

Mamlakatimizdan urushga jami 1 million 950 ming kishi yuborildi, yaʼni oʻzbekistonliklarning har uchtadan bittasi qoʻliga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilib, jasorat koʻrsatib, gʻalabaga oʻz hissasini qoʻshgan. Urushga ketganlardan Vatanga qaytib kelgan

oʻzbekistonliklarning soni 1 million 542 ming 98 kishi boʻlgan. 870 ming 940 nafar urushga safarbar etilgan yurtdoshimiz janggohlarda yarador boʻlgan. 538 ming 366 nafar jangchi yurtdoshimiz frontlarda halok boʻlgan, 158 ming 36 nafar yurtdoshimiz bedarak yoʻqolgan. 1941-yilda Oʻzbekiston aholisi bor-yoʻgʻi 6,5 million kishi ekanini eslasak, respublika xalqi boshiga tushgan sinovning naqadar katta va fojiali boʻlgani yaqqol koʻrinadi.

Urushning dastlabki kunlarida nemis fashistlari bosib olgan hududlardan moddiy va ishlab chiqarish vositalarni evakuatsiya qilish asosiy vazifalardan biri edi. Ularni koʻchirish va joylashtirish sobiq Ittifoqning sharqiy respublikalari hududlarida barpo etish katta ahamiyat kasb etardi.

Turli hududlardan koʻchirib keltirilgan korxonalarni joylashtirish va zudlik bilan ishga tushirish, front uchun kerak boʻlgan anjom-uskunalar, texnika va qurollarni ishlab chiqarish boshqa respublikalar qatori Oʻzbekiston zimmasiga ham tushdi.

Urushga safarbar etilgan erkaklar oʻrnini zavod va fabrikalardagi ish

stanoklarida ayollar hamda keksa yoshdagi insonlar, shuningdek mehnat qilishga qodir oʻsmirlar egalladi.

Oʻzbekistonga zavod-fabrikalardan tashqari, bir millionga yaqin odam, shu jumladan 20 ming bola evakuatsiya qilindi. Faqat 1943-yilning 9 oyi davomida 9 199 nafar qarovsiz va 8 896 nafar boquvchisiz bola roʻyxatga olinib, ulardan 4 959 nafari zavod va fabrika maktabi, bolalar uyi va ishga, 3 663 nafari bola qabul punkti va 148 nafari boshqa tashkilotga joylashtirildi. Toshkent shahrining oʻzida 240 ming, jami Oʻzbekistonda 350 ming kishi ish bilan taʼminlandi. Minglab oʻzbek oilalari evakuatsiya qilingan bolalarni oʻz bagʻriga olib, ularga oʻzlarining bolalaridek gʻamxoʻrlik qildi.

Shu oʻrinda qayd etish kerakki, bu davrda Oʻzbekiston xalq taʼlimi, oliy oʻquv yurtlari hamda ilmiy muassasalar ogʻir sinovlarni boshdan oʻtkazdi. Bu jarayonda, hatto taʼlim sohasi xodimlari, professor-oʻqituvchilar ham frontga safarbar etildi.

Oʻzbekistonliklar Ikkinchi jahon urushida koʻrsatgan qahramonliklari uchun 120 mingdan ortiq kishi orden va medallar bilan taqdirlangan. 301 kishi

Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, yuzga yaqin vatandoshimiz “Slava” (“Shuhrat”) ordeniga loyiq koʻrilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan soʻng urushda halok boʻlganlar xotirasini tiklash va xotirlash maqsadida “Xotira” kitoblari yaratildi, poytaxtimiz va viloyat markazlarida xotira bogʻlari tashkil etildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Oʻzbekiston aholisi urushda ishtirok etib, frontda qon kechganidan tashqari, mehnatga yaroqli har bir kishi zavod va fabrikalarda, dalalarda mehnat qildi. “Hamma narsa front uchun!” shiori bilan hovlisidan chiqqan meva-sabzavotgacha davlatga topshirdi.

Uzoq yillar oldin hamqishlogʻim, mehnat faxriysi Erkinjon ota Turdiyev bilan suhbatlashganimda “Men sakkiz yoshimdan boshlab front ortida mehnat qilganman. Otam urushga ketgan, xat olgan kunimiz butun qishloq bayram qilamiz. Bizga qancha koʻp mehnat qilsak, urush shuncha tez tugashini uqtirishar edi. Men tengdoshlarim bilan qishloqdan tuman markazidan oʻtadigan temiryoʻl stansiyasiga lavlagi tashir edim. Kechqurun mehnat haqimizni qoʻlimizga tutqazishar edi. Hammamiz bir xil kunlik ish haqi olsak ham otamiz urushdan tezroq qaytsin deb, yana qishloqqa ot-aravani yugurtirardik. Yukni ortib, yana markazga ot solamiz”, deb gapirib bergan edi.

Bolaligidanoq erta ulgʻaygan, otasidan “qoraxat” kelgan, ochlik, yetimlik azobidan qiynalgan oʻsmirlar bugun nuroniy yoshga yetdi. Afsuski, ular qatori yildan yilga kamayib bormoqda. Bugungi musaffo osmon qadrini hammadan koʻproq ular anglaydi. Ularning peshonasidagi har bir chiziq, kaftidagi har bir qadoq oldida qarz dormiz.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida “Gʻalaba bogʻi” va “Shon-sharaf” davlat muzeyi barpo etildi. Bugungi kunda bu bogʻ poytaxtimizning eng gavjum goʻshalaridan biriga aylangan.

Odiljon RAJABOV,
Toshkent shahri Chilonzor tumani
mudofaa ishlar boʻlimi xizmatchisi

OʻZBEK XALQINING MATONATI



Rassom va Margarita:

javobsiz muhabbat, million atirgul va yoqilgan maktublar

KECHIKKAN SEVGI

Parijlik aktrisa Margaritaning tashrifi butun Tbilisida shov-shuv ko'tardi. Yigirma yoshli qiz qo'ng'iroqday ovozi, go'zal chehrasi, qushday yengil harakati bilan tomoshabinlar qalbiga cho'g' solardi. Yuragi kuyganlardan biri mashhur gruzin rassomi Niko Pirosmanni edi.

Ammo Niko harchand harakat qilmasin, aktrisaning ko'ngliga yo'l topolmadi. Har kuni konsertiga borar, izidan ergashib yurar, xatlar yozardi. Shuhrat fazosida uchib yurgan Margarita esa uni nazarga ilmasdi. Axir rassom bu paytda 43 yoshda edi. Shunda ham Niko taslim bo'lmadi va bir kuni tongda hammasi o'zgarib ketdi.

MILLION ATIRGUL VA BIR BO'SA

1905-yil. Bir tong Margarita odamlar shovqinidan uyg'onib ketdi. Xonasiga to'lgan yoqimli ifor bilan biror fransuz atiri bellasha olmasdi. Yoqimli ifordan sarmast qiz pardalarni surib, derazalarni ochib yubordi. Avvaliga quyosh nuridan ko'zi qamashdi, keyin hovlidagi manzaradan dong qotdi. Mehmonxonaning kattagina hovlisi bir kechada gulzorga aylangandi. "Yal-yal" tovlanayotgan atirgullar, shamolda titrayotgan lolalar, akatsiya novdalari, oq qalpoqli liliyalar, yaproqlari fatila pionlar yuqori qavatdan ham aniq ko'rinib turardi. Ko'rmaslik mumkin emasdi, bu mo'jizani.

Margarita yugurib pastga tushdi-yu, ko'zi bir chetda tabassum qilib turgan Niko Pirosmanni tushdi, bu mo'jiza yaratuvchisini tanigandi u. Hayajonlangan aktrisa rassomga yagona bo'sa hadya etdi. Tamom. Mana shu oniy lahza uchun rassom butun uy-joyi, do'konlari va kartinalarini sotib yuborganini qiz tushmagur bilmasdi. Bilishga ham ulgurmasdi, chunki kechasiyoq shahardan jo'nab ketgandi.



TUSHLARIMDA KO'RIB YIG'LAYMAN...

Shu voqeadan keyin Pirosmanni o'zgarib qoldi. Tunlari bezovtalikdan to'lg'anar, tushlarida Margaritaning dilbar chehrasini ko'rib chiqardi. Uyg'onganda esa ko'zidan yosh oqayotgan bo'lardi har gal. Nihoyat, 1909-yilda Niko ko'nglidagi qiz aksini "Aktrisa Margarita"ga ko'chirdi. Kartina bitgach, uning qalbi huvullab qoldi. Ko'p o'tmay, qiyinchilik, tushkunlik va kutishdan charchagan rassom 55 yoshida vafot etdi.

Dunyoning ishlarini qarangki, 1968-yili Luvr muzeyida, Margaritaning yurtida Niko Pirosmanni asarlarining ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bir kuni o'tkinchi kampirning "Aktrisa Margarita" kartinasi yonida uzoq vaqt turib qolgani muzey qo'riqchilarida shubha uyg'otdi. Balki, u ayg'oqchidir, balki, o'g'ridir, kim bilsin. Mas'ullar yetib kelganda, ayol tinmay yig'lar, hatto ko'zyoshlardan liboslari ho'l bo'lib ketgandi. Ma'lum bo'lishicha, bu kampir Niko million-million gul hadya qilgan Margaritaning o'zi ekan. U o'zining kartinasi bilan suratga ham tushdi.

O'shanda Margarita nega yig'ladi? O'sha romantik tongni esladimi yoki Nikoga bergan rad javobidan afsuslandimi? Balki suratga boqib o'tgan yoshligiga kuygandir?

MAKTUBLAR MOZORI

Margarita xonim va Luvrdagi ko'rgazmada qatnashayotgan Gruziya vakillari o'rtasida shunday suhbat bo'lgan ekan.

– Janoblar, menda Pirosmanni yillar davomida yozilgan maktublari bor. Men qarib qoldim, ularni yo'qolib ketishini istamayman. Iltimos, ularni olib keting!

– Kechirasiz, xonim, buning iloji yo'q. Xatlar qanchalik qimmatli bo'lmasin, ularni SSSR hududiga olib kirish bizga ham qimmatga tushadi. Tavakkal qilolmaymiz. Afsus...

– Lekin janoblar...

– Xonim, agar Nikoning hamyurtlariga yaxshilik qilmoqchi bo'lsangiz, bu suhbatni sir tuting!

Shundan so'ng Margarita barcha maktubni yig'ib, ularni o'zi bilan qo'shib ko'mishlarini vasiyat qiladi. Ammo xatlar shu darajada ko'p ediki, oxiri ularni yoqib, kulini Margaritaning qabriga sepishga to'g'ri keldi. O'sha qabr qayerda ekan hozir? O'sha xatlarda nimalar yozilgan ekan?! Buni bilmaymiz, endi hech qachon bilolmaymiz.

Ammo Margarita va Niko qissasi dunyo adabiyoti va san'ati vakillariga cheksiz ilhom bag'ishladi. O'tgan vaqt mobaynida ularga atab o'nlab filmlar, romanlar, she'rlar va qo'shiqlar yaratildi. Andrey Voznesenskiy she'ri bilan Alla Pugacheva kuylagan "Million alix roz..." qo'shig'i ana shunday durdonalardan biri edi...

Otabek BAKIROV

Keling, kitob o'qiymiz!

Muallima opaning

“CHINNIGUL”LARI



Birmuncha vaqt poytaxtdagi 248-umumta'lim maktabida targ'ibotchi bo'lib ishladim. Meni maktab jamoasi juda hayajon bilan kutib oldi, deya olmayman. Ensasi qotib, salomimga alik olmaganlar ham bo'ldi. Ammo o'qituvchilar orasida oftobday porlab turadigan bir ayol bor ediki, meni mingyillik qadrdoni kabi kutib oldi. Nazarimda, u hammadan ham ko'proq sevingandek. Mening qiyofamda u o'ziga hamkor, hamfikir insonni ko'rganiga ishonaman. Chunki bizni birlashtiradigan jihatlar bisyor edi. Ayniqsa, adabiyotga, adabiyot ahliga tom ma'noda oshiqligida o'zimni ko'rgandek bo'ldim.

Bugun o'qituvchilarning obro'-e'tibori, jamiyatdagi mavqeyi haqida ko'p gapiriladi. Bu gaplarning ularga qanchalik nafi tegdi, bilmadim. Ammo ayrim muallimlar faoliyatini kuzatsangiz, bu kasb taqdirilariga bitilgandek, bu kasb taqdirilariga bitilgandek, taassurot uyg'onadi. 248-umumta'lim maktabida men tanigan inson Feruza Salxodjayevaning peshonasiga ham ana shunday sharaflı qismat bitilgan.

O'quvchilari haqida gapirganida hayratga tushaman. Sinfidagi o'ttiz-qirq bola (ehtimol, bir necha yuzlabdir)ning har birini o'z farzandini bilgani kabi bilishiga hayratlanmay, ilojingiz yo'q. Dunyo bo'ylab migratsiya to'xtamaydigan jarayonga aylangan. O'rganib ham qolgandekmiz. Hamma

ham yaxshi yashashga intiladi, to'kinlik, farovonlikni o'ziga yurtlardan topishga harakat qiladi. Ammo... bu farovonlik ko'p oilalar uchun qimmatga tushadi. Bobo-buvilari, boshqa qarindoshlari qo'lida qolayotgan bolalar taqdiri-chi?! Bularni nega gapiryapman? Feruza Salxodjayeva bilan bunday bolalar o'rtasida qanday bog'liqlik bor? Muallimning o'quvchilari orasida ota-onasi yo'lga ko'zlari nigoron bolalar bor. “Ustoz, juda baxtliman, onam xorijdan qaytib keldi. Onang uyda bo'lsa, qanchalar yaxshi. Yana qaytib ketishlarini istamayman...” Ana shunday mehrga tashna bolalar haqida gaplashgan edik. Bolalarining bolaligidan uzoqda, tirikchilik dardida yurgan ayollar haqida gaplashganmiz.

O'shanda men uning qiyofasida fidokor bir o'qituvchini tanigan edim. Yaxshigina qalami bor adiba ekanini keyinroq bildim.

Bozor uyimizga yaqin. Bu yerda uch-to'rtta kitob do'koni bor. “Nur kitoblar” do'koni kengishroq, yangi kitoblar tez-tez kelib turgani uchun har kuni kirgim kelardi. Bu istagimdan o'tgan yili kuzda voz kechdim. O'tgan-qaytganimda do'konga qaramaslikka harakat qilaman. Qarasam, o'ziga tortib oladi, qanday kirganim va o'zimga yoqqan kitobni qanday xarid qilganimni bilmay qolaman. O'tgan yili kuzdan beri yangi kitob olganim yo'q. O'sha kuzdan keyin bu do'konga kirmadim. Chunki kuzning so'nggi oylarida bir necha yillar davomida yig'gan xazinam – kitoblarimni mahalla kutubxonasiga topshirib yubordim. Shunchaki tashlab yubormadim, foydalanishga topshirdim-ku, deya o'z-o'zimga tasalli bersam-da, yuragim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Do'stlarimga xiyonat qilgandek, aybdorlik hissi hamon tark etmaydi.

Dam olish kuni do'konga dadillik bilan qaradim, ko'nglimdan “baribir kirmayman-ku” degan o'y kechdi. Yo'q, bo'lmadi, shundoqqina kitoblarga ko'z tashlayman-u, tezgina chiqaman, deb... Ne ko'z bilan ko'rayki, javonning pastki qismida qadrdon muallimaning bir dasta kitoblariga ko'zim tushib qolsa deng. Yana bir necha nomda. Eng tepasida turgan “Chinnigul”ni oldim. Muqovasida shunday yozilibdi: **“O'zbek otalarining buyuk qalbi, o'zbek ayolining go'zal sabri, o'zbek qizlarining taqdiri haqida. Ya'ni siz va sizning yaqinlaringiz haqidagi hikoyalar to'plami bu. Bu voqealarning barchasi bugungi kunimizning ko'rinmas qahramonlari haqida”**.

“Chinnigul”ni varaqlab turib, shu parchaga ko'z yugurtirdim: “Mana shu teraklar otamga o'xshaydi. Adam Turbatdan boshqa joyda bunaqa tiniq ko'k teraklar o'smaydi, deydi. Qara, mana bunisi – mening otam! Adam ham biladilar, mana shu terak o'zlari ekanini ularga aytganman. Bir yili ustalar imoratga kesamiz deganida hech kimni, hech kimni yo'latmaganman.

Yig'lab yubordim. Axir mening ham o'z uyimda ko'k teragim bor. Mening ham dunyoda tengsiz otam bor. Endi bildim, bizni birlashtirgan narsa – otalarimizga bo'lgan adoqsiz muhabbatimiz ekan. Ikkimiz ham dunyodagi eng yaxshi otalarning farzandi edik”.

Ha, bu kitobga mehrim tushishi uchun shu parchaning o'zi kifoya qildi. Xayollaringni olis o'tmishga olib ketadigan, ortingda hamisha qo'rg'on kabi turgan, seni kutgan, sen intilgan bir zot – Ota, bugun xotiralar qoldirgan insonni yodga soladigan parcha.

“Chinnigul”da “Baxt manzili” degan hikoya bor. Barbod taqdirning qanday tiklanishi haqida. Oramizda shunday insonlar borki, odamlardan fazilat topib yashaydi. Qushning ham ini buzilishiga yo'l qo'ymaydi. Endi qayta tiklanmaydi, degan oilalarni yana qovushtirib, tinib-tinchib ketishiga sabab bo'ladi. Ishonaman, siz ham bunday insonlarni bilasiz, oilani muqaddas sanab, butunligi uchun bor ilmini ishga soladigan o'zbekning kayvoni onalari kam emas.

“Ostona” hikoyasidan o'qiymiz:

“Inson hamisha ham baxtning qadriga yetavermaydi, u doim nimadandir norozi, nedandir ko'ngli to'lmay, uzundan uzoq orzular yetovidan ushlab ketaveradi. Aslida, baxt qo'lda tutgan qushdek omonat, uni ushlab qolish emas, his qilish kerak! Joyida! Vaqtida!”

Bu shunchaki gap emas. Bu siz-u bizning ko'pda ham qadrlamaydigan, sezmay qolib yo'l qo'yadigan xatolarimizdan ogohlantirishdir.

Hikoyalar oila, ayol-qizlar hayotidan so'zlaydi. Zero hamma narsa oiladan boshlanadi, mehr-oqibat, muhabbat, ulug' maqsadlar, orzular. “Chinnigul”da ilmga rag'bat, targ'ibot bor, ayniqsa, ayol-qizlarimizning ma'rifatli bo'lishiga chaqiriqdek o'qiladi.

“Qavs bog'lari” eng go'zal hikoyalardan biri. O'qiymiz: “Bog'larga kuz, ko'nglimga xazon tushdi. Atrofda hamma shodon, mening qalbim mahzun. Kuz – mening faslim. O'zimdek za'faron, o'zimdek abgor, ammo ko'nglimga yaqin.

Har yili saxovatli kuzdan kutilmagan mo'jizalar kelishini kutaman, biroq u tez o'tib ketadi. Shosha-pisha etaklarini yig'ishtiradi-yu, qishga o'rmini bo'shatadi. Qish bilan kuz orasida Qavs bor!

Xazonrez bog'larning so'nggi husniga to'yib qoladigan palla. Daraxt shoxlarida yolg'iz qolgan olmadek, chinor bargida uzilib-uzilmay turgan yagona bargdek titrab turgan qalbim bilan unga peshvoz chiqaman”.

Ha, kuz ham benihoya dilbar fasl. Ba'zan qalbingga dilgirik solsa ham ulug'vorligiga tan berasan.

Ancha yillar muqaddam, kuz fasli edi o'shanda, taniqli radiojurnalist Mavluda Raupova hamkasblari bilan tog' sayriga ketayotganlarini aytganida hayron bo'lganman, so'rganman:

– Kuzda tog'larda nima bor?

– Siz kuzda tog'larni bir ko'rsangiz edi, bag'ridagi daraxtlar emas, lov-lov yongan o't deysiz. Kuzning ham ranglari sanoqsiz.

Shu qisqagina suhbatimizdan keyin kuzga e'tibor berdim va maftuniga, asiriga aylandim. Men ham kuz faslini yoqtiraman. Toshkent kuzda bir boshqacha tarovatli bo'lib ketadi.

“Qavs bog'lari” umidli, muhabbatli va birmuncha huzunli hikoya.

Dunyoda ne'matlar mo'l. Bearmon foydalanamiz. Borini har doim ham qadrlamaslik insonga xos. “Yig'layotgan orzular”dagi mana bu gap meni hayratga soldi: “O'shanda ko'zyosh to'ka olish ne'mat ekanini bilganman”.

Nega yig'i ne'mat ekanini kitobni o'qisangiz, anglab olasiz.

Shu hikoyada shayx Sha'roviyning quyidagi hikmati keltirilgan:

“Shunday kun keladiki, yuzingda birgina tabassum paydo bo'lishi uchun o'zini fido qiladigan, o'zini baxshida qiladigan insonni topasan. Shunday ekan, qalbing eshiklarini qulflab olma! Chunki qalbing eshiklarini chertuvchilarning hammasi ham uni jarohatlashni niyat qilavermaydi”.

Naqadar umidbaxsh hikmat!

Ortiqcha so'z aytish niyatim yo'q. Fidokor muallima Feruza Salxodjayeva olamiga xush kelibsiz!

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



“Virusli hepatit” atamasi ikki turdagi – infeksiyali yoki epidemik (*virusli hepatit A va E*) va zardob (*virusli hepatit B, C, D*) hepatitlarni birlashtiradi. Ushbu hepatitlar klinik turi jihatidan bir-biriga o'xshaydi va asosan jigarining shikastlanishi hamda umumiy zaharlanish holatlari bilan kechadi.

Kuz mavsumida epidemik hepatitlarning kelib chiqishi va tarqalishi uchun sharoit paydo bo'ladi. Virusli hepatit A va E kasalliklari – adabiyotlarda sariq kasalligi, o'tkir kataral sariq kasalligi, Botkin kasalligi va aholi orasida tez tarqalgani sababli epidemik hepatit deb ham ataladi.

Kasallikni qo'zg'atuvchi viruslar odam uchun kuchli yuquvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, tashqi muhitga ancha chidamli hisoblanadi. Ular quritilgan yoki muzlatilgan holda bir yildan ortiqroq saqlanib turishi mumkin. Qo'zg'atuvchilarning turlari issiqqa ham chidamli bo'lib, 45 daqiqa davomida qaynatilgandagina o'ladi. Hepatit kasalligi bilan kasallangan bemor infeksiya manbai hisoblanadi va atrofdagilar uchun yuqish xavfini tug'diradi.

Infeksiyali hepatit yuqqandan so'ng yashirin davrining davomiyligi bir haftadan bir oygacha davom etadi. Kasallik ko'pincha asta-sekin avj olib boradi, lekin ba'zida birdan boshlanishi ham mumkin. Kasallikning birdan boshlanishi ko'proq bolalarda uchraydi. Tana harorati ko'tarilib, bemorning eti uvushadi, qorinda og'riq paydo bo'ladi, ko'ngli aynib, qayt qiladi. Darmon qurishi asta-sekin kuchayib boradi, lanjlik, serzardalik paydo bo'ladi, uyqu buziladi, boshi og'riydi, ishtaha pasayadi yoki tamomila yo'qoladi, bemorning to'shosi sohasi va o'ng qovurg'a ostida og'irlik paydo bo'ladi. Yoshi katta odamlarda muskul va suyaklarda og'riq paydo bo'ladi, badan terisiga eshakyemiga o'xshash allergik toshma toshishi mumkin. Kasallikning boshlang'ich davridayoq qon zardobidagi fermentlarning faolligi kuchayadi. Shu davrning oxiriga kelib, jigar kattalashadi, siydikning rangi to'qlashib, axlat rangsizlanadi.

Yashirin davrining oxirgi kunlaridan boshlab, sariqlik paydo bo'lishining birinchi haftasigacha kasallik qo'zg'atuvchi viruslar najas bilan birga tashqi muhitga chiqib turadi. Bemorning najasi

qancha vaqt mobaynida yuqumli bo'lsa, qoni bilan zardobi ham xuddi shuncha muddat davomida yuqumli bo'ladi.

Epidemik hepatitlar qo'zg'atuvchilarining yuqishida oziq-ovqat mahsulotlari, idish-tovoq, bolalar o'yinchoqlari, ko'rpa-to'shak, pashsha hamda bemor odamning qo'li ahamiyatlidir. Meva va sabzavotlarni yuvmasdan iste'mol qilganda, ba'zi hollarda uy hayvonlari (*it, mushuk va chorva mollari*) bilan bo'lgan muloqotda, ochiq suv havzalaridan suv iste'mol qilish yoki cho'milish davrida suv yutish hepatit kasalligini keltirib chiqarishi mumkin.

Infeksiyali hepatitlar bilan ko'pincha maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar kasallanadi. Kattaroq yoshdagi kishilar guruhida kasallik kam uchraydi, chunki kattalar orasida oldin virusli hepatit bilan og'rib o'tgan va bu kasallikka nisbatan immunitet hosil qilgan kishilar anchagina ko'p uchraydi.

Infeksiyali hepatitlarning maxsus davosi yo'q. Bemorning sog'ayib ketishi, kasallikni barvaqt aniqlab, fursat o'tmasdan shifoxonaga joylashtirish, parhezga rioya qilish hamda organizmning buzilgan funksiyalarini asliga kelishi uchun yordam beradigan dorilar bilan davo qilishga bog'liqdir. Kasallikning og'ir va o'rtacha turidagina emas, balki bu kasallik yengil o'tib turgan paytda ham bemor yotib davolanishi lozim. Bemorlarga davo qilishda to'g'ri ovqatlanish juda katta yordam beradi.

Kasallikning 2-4 haftasi oxiriga kelib, davolanish yordamida bemorning ahvoli yaxshilanadi, axlat bilan siydikning rangi o'z holiga qaytadi, badan va ko'z olmasidagi sariqlik yo'qoladi, ishtaha ochiladi. Kasallik bilan og'rib o'tgan organizmda uzoq davom etadigan kuchli immunitet paydo bo'ladi. Virusli hepatit bilan kasallanib o'tgan bemor, albatta, ko'pchilik hollarda sog'ayib ketadi, lekin ba'zi hollarda xastalikdan so'ng asorat qoladi. Shuni ta'kidlash lozimki, sil, qandli diabet, surunkali me'da-

ichak va yurak-qontomir kasalliklari bor kishilarda xastalik ko'pincha og'ir o'tadi. Virusli hepatitning asoratlardan biri o't pufagi yo'lining zararlanishidir. Jigar faoliyatining buzilishi ham virusli hepatit xastaligining asoratlardan biridir. Shu sababli virusli hepatit bilan kasallangan bemor parhezga qat'iy rioya qilishi zarur. Bemor ko'proq suyuqlik iste'mol qilishi lozim. Sabzavot va meva sharbatlari, shirinchoy va sut ichish tavsiya etiladi, ovqat tarkibida esa tuz kamroq bo'lishi talab etiladi.

Virusli hepatit inson salomatligiga katta zarar keltirib, jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi, kasallikni boshdan o'tkazganlar uzoq muddat ish qobiliyatini yo'qotishini hisobga olgan holda ushbu xastalikni oldini olish talab etiladi.

Xastalikni oldini olish uchun, avvalo, kasallik keltirib chiqaruvchi manbalarni yo'qotish lozim, atrof-muhit tozaligini saqlash, yotoqxona, oshxona va boshqa obyektlarda kasallikni qo'zg'atuvchilariga qarshi dezinfeksiya ishlarini olib borish lozim. Bundan tashqari, kasallikka chalinmaslik uchun har doim hojatdan so'ng va ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish, tishlarni tozalashda faqat shaxsiy tish cho'tkalaridan foydalanish, maxsus idishlarda chiqarilgan yoki qaynatilgan suvni ichish, ovqat qoldiqlarini ochiq, ishlatilgan idish-tovoqlarni yuvuqsiz qoldirmaslik, meva va sabzavotlarni toza suvda yuvib, iste'mol qilish talab etiladi.

Infeksiyali hepatitga qarshi kurashish, bemorni faol aniqlash, uni alohidalash hamda davolash, infeksiya yuqish yo'llarini to'sish bilan olib boriladi. Kasallikni birlamchi belgilari paydo bo'lgandayoq tibbiyot xodimiga zudlik bilan murojaat qilish lozim. Tibbiyot yordamiga kech murojaat qilish yoki shifokor ko'rsatmasisiz davolanish og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Kasallikning oldini olishda maxsus profilaktikaning o'rni katta. Bunda kasallik yuqish xavfi yuqori bo'lgan aholi qatlamini, ya'ni yosh bolalarni, tarbiyachilarni, tibbiyot xodimlari, oshpazlar, ichimlik suvi ta'minotida ishlovchilarni hepatit A kasalligiga qarshi emlash bilan ular kasallanishining oldi olinadi.

Tibbiy xizmat katta leytenanti F. NIYOZOV,
Qurolli Kuchlar xizmatchisi B. AHMEDOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi mutaxassislari

Nazm



VASIYAT

Harbiy uchuvchi, mayor Abdumajid Hamroyev 2000-yilda xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan. Uning o'g'li Anvar Hamroyev ota izidan borib, harbiy bo'ldi. Bugun u ham mayor.

Hozirda Mudofaa vazirligi tizimida qahramon otalarning sharaflari yo'lini davom ettirayotgan yuzlab "Anvar"lar bor. Mayor Shuhrat Usmonov, ofitser Suhrob Sanjarov, kapitan Ulug'bek Ulashev, leytenant Azamat Usmonov, ofitser Temur Sanjarov, kursant Jasurbek Ro'ziboyevlar xalqimizning ana shunday jonfido farzandlaridir.

Yurtim, ozor ko'rma do'st-dushmaningdan,
Tinchlik buzolmasin yot, g'anim bo'lsin...
Agar sening uchun, shart bo'lsa, chindan,
O'lim sharbatidan totganim bo'lsin!

Yurtim, tarix guvoh g'olibligingga,
Tarix guvoh chekkan hasratingga ham.
Do'stlar shohid do'stga tolibligingga,
Yovlar shohid yovqur nafratingga ham.

Yurtim, duch kelmagin nomard g'animga,
Sinalmagin bunday imtihon bilan.
Oq sut bilan kirgan mehning tanimga,
Chiqar bo'lsa, chiqqay faqat jon bilan.

Yurtim, yovlaringga bermasman to'zim,
Umrin tikdim, o'z yo'l, o'z g'oyang uchun.
Himoyang yo'lida jon bersam o'zim,
Bolanmi qoldirgum, himoyang uchun!

Mansur JUMAYEV, shoir
8-yanvar 2024-yil, Toshkent

Qo'ljangi

HARBIY OKRUG BOSQICHI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Muborak tumanida joylashgan harbiy qismda ko'rgazmali qo'ljangi musobaqasining okrug bosqichi bo'lib o'tdi.



Bellashuvlarda Qashqadaryo va Buxoro viloyatlaridagi harbiy qismlardan 4 ta jamoa qatnashib, o'z tayyorgarliklarini namoyon etdi. Malakali harbiy xizmatchilar tomonidan halol va shaffof tarzda nazorat qilib borilgan jarayonlarda akrobatik usullarni to'g'ri va mukammal bajarilishi, harakatlarni jamoaviy birxillikda bajarish, oyoq va qo'lida beriladigan zarbalar professionalligi, qurol hamda qurolsiz mashqlarni bajarishdagi mohirlik, belgilangan vaqt reglamentiga amal qilish singari sifatlarga alohida e'tibor qaratildi.

Jamoalarning murakkab usul va harakatlarni bexato hamda sinxron



bajarayotganini kuzatib, bellashuvlarga chuqur tayyorgarlik ko'rganini sezish mumkin.

Barcha mezonlarda yuqori ball to'plagan Buxoro viloyatida joylashgan harbiy qism jamoasi faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Qashqadaryo viloyati Muborak tumani hamda Nishon tumani Nuriston qo'rg'onida joylashgan harbiy qism jamoalari ikkinchi va uchinchi o'rinlarga munosib ko'rildi.

G'olib jamoalar hamda ba'zi usullarni bajarishda tengsiz ekanini ko'rsatgan harbiy xizmatchilar okrug qo'mondonligi tomonidan diplom, kubok va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati

Ayyom shukhi

Ana shunday tadbirlardan biri tashkilotning Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi sportning texnik va amaliy turlari markazida "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oya ostida o'tkazildi.



"Vatanparvar" tashkilotida mustaqillik ayyomi nishonlanmoqda

Tadbirda tashkilot tizimida mehnat qilayotgan xodimlar, faxriylar, sportchilar, mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlar hamda bir qator davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Tantanali marosim boshida so'zga chiqqan Toshkent shahri kengashi raisi Sanjar Esamuratov yig'ilganlarni yaqinlashib kelayotgan ulug' ayyom bilan qutlab, "Vatanparvar" tashkiloti tarixi, bugungi kunda tashkilot tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Tadbir davomida taniqli shoir va suxandonlarning ijodiy chiqishlari hamda xonandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

"Vatanparvar" tashkiloti tizimida tashkil etilgan "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Yozgi biatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Modelizm" kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha seksiyalarning ko'rgazmali namoyishi yig'ilganlarning katta qiziqishiga sabab bo'ldi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan tashkil etilgan jangovar sahna ko'rinishlari, qurol-aslahalar ko'rgazmalari va faxriy qorovul chiqishlari barcha ishtirokchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Islohot

YANGI AVTOMOBILLAR BILAN BUTLASH ISHLARI DAVOM ETMOQDA



Yurtimizda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi keng nishonlanayotgan ayni kunlarda "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga navbatdagi yangi zamonaviy o'quv avtomobillari topshirildi.

Pop tumanida bo'lib o'tgan tadbirda tashkilot markaziy kengashi raisi Husan Botirov tomonidan viloyat kengashining o'quv muassasalariga 21 dona "ONIX", 1 dona "DAMAS" rusumidagi yengil avtomobil va 4 dona "FOTON" rusumli yuk avtomobili tantanali ravishda topshirildi.

Husan Botirov o'z nutqida mamlakatimizning eng ulug' va eng aziz bayrami oldidan ushbu transport vositalari nafaqat tashkilot xodimlari uchun, balki butun Namangan viloyati ahli uchun munosib sovg'a ekanini, endilikda

tashkilotning tuman va shaharlardagi o'quv muassasalarida mazkur avtoulavlardan fuqarolarni "B", "BC", "C" toifalari bo'yicha haydovchilik kasbiga tayyorlashda foydalanilishini bildirdi.

Topshirish marosimi haqiqiy tantanaga aylanib ketdi. Tadbir davomida harbiy orkestr tomonidan ijro etigan kuylar hamda tashkilotning "Raketamodel" va "Karting" to'garaklari sportchilari tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmali chiqishlar barcha yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Sayyor qabul

Kompleks tadbir

Andijon harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Mudofaa vazirligiga qarashli Andijon shahridagi harbiy qismlarning birida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Unga tegishli soha vakillari va mutaxassislar jalb etilib, harbiylarning oilalari va yoshlar tinglandi.

Kelib tushgan murojaatlarning aksariyatini joyida ijobiy hal etish choralari ko'rildi, shuningdek tegishli qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy maslahatlar berildi.

Ayni jarayonda tashkil etilgan kitoblar ko'rgazmasi kitobxonlikni keng targ'ib qilishga xizmat qilgan bo'lsa, mehnat yarmarkasi orqali

ishtirokchilarga Andijon shahri va unga qo'shni tumanlardagi bo'sh ish o'rinlari taklif etildi. Arzonlashtirilgan maktab yarmarkasi ham harbiy oilalar uchun ayni muddao bo'lib, qimmatli vaqtlari tejashiga zamin yaratdi.

Adliya podpolkovnigi Iqboljon HALILOV,
Andijon harbiy prokurorining o'rinbosari

Seminar

Navbatdagi o'quv mashg'ulot

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Toshkent, Chirchiq, Guliston va Jizzax harbiy prokuraturalarida xizmat qilayotgan yosh tergovchilar uchun o'quv-seminar tashkil etildi.

Unda mahkamaning mas'ul xodimlari va hamkor tashkilotlardan jalb etilgan ekspert-mutaxassislar tomonidan harbiy prokuratura organlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari borasida fikr-mulohazalar almashildi.

Mahorat darslari O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasining "Tergov poligoni"da real vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda olib borildi.

So'ngra ishtirokchilardan o'tilgan mashg'ulotlar, shuningdek qonunchilik hujjatlari doirasida hamda o'q otish tayyorgarligidan sinovlar qabul qilindi.

Adliya polkovnigi Abduaziz XODJAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim harbiy prokuror-kriminalisti

Tajriba

Amaliy ko'nikmalar oshirildi

O'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum ijrosi doirasida Jamoat xavfsizligi universitetining bir guruh yuqori bosqich kursantlari O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida bo'lishdi.

Dastlab ochiq muloqot o'tkazilib, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining birinchi o'rinbosari tomonidan kursantlarga nazariy tayyorgarlikni amaliyot bilan uyg'un holda olib borish, protsessual qonun hujjatlaridagi yangiliklar va harbiy prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berildi.

O'quv mashg'ulotlari Toshkent, Chirchiq, Guliston va Jizzax harbiy prokuraturalarining tergovchilari ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi "Tergov poligoni"da o'tkazilayotgan mahorat darslariga ulanib ketdi.

Mashg'ulotlarda mas'ul harbiy prokuror-tergov xodimlari hamda taklif etilgan ekspert-mutaxassislar tomonidan kursantlarga tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini olib borishning muhim jihatlari, ularning huquqiy asoslari, ekspertiza tayinlashda e'tibor qaratiladigan masalalar, tergov harakatlarini rasmiylashtirish shartlari haqida atroflicha tushunchalar berildi.

So'ngra kursantlar Harbiy prokuratura muzeyi va "Ma'naviyat burchagi" hamda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Bu kabi tadbirlar kursantlarning ko'nikma va mahoratini amaliy faoliyat bilan hamohang tarzda muntazam oshirib borishga xizmat qiladi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Ijtimoiy himoya

Tibbiy ko'riklar davom etmoqda

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiylarning oila a'zolari, harbiy ayollar va mahallalarda yashovchi xotin-qizlar uchun "Harbiy prokuratura - armiya prokuraturasi" shiori ostida bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar o'tkazilishi izchil davom ettirilmoqda.

Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida va Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida tashkil etilgan tibbiy ko'riklar esa istiqloq bayrami arafasida "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tkazilayotgan kompleks tadbirlar doirasida bo'lgani bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi.


Dastavval ochiq muloqot o'tkazilib, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ular uchun joriy etilgan imtiyoz va imkoniyatlarga doir qonunchilik mazmun-mohiyati yetkazildi.

So'ngra opa-singillarimiz, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining tor doiradagi tibbiyot mutaxassislari jalb etilgan holda ayollar orasida ko'p uchraydigan onkologik kasalliklarning oldini olish maqsadida maxsus tibbiy tekshiruvlardan o'tkazildi.

Jarayonda 400 dan ziyod harbiy ayol va xodim, ularning oila a'zolari, harbiylarning rafiqalari va farzandlari, shuningdek hududdagi mahallalarda istiqomat qiluvchi xotin-qizlar malakali shifokorlar ko'rigidan o'tib, zarur tibbiy tavsiyalar oldi.

Adliya kapitani Ulug'bek XOLMAMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

HUQUQIY BILIMLAR OSHIRILMOQDA



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Notarial palatasi o'rtasida imzolangan hamkorlik to'g'risidagi memorandum doirasida yurtimiz bo'ylab harbiy qismlarda "Notariyslardan bepul huquqiy bilimlar" shiori ostida qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ushbu tashabbus harbiy xizmatchilarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning kundalik hayotida dolzarb bo'lgan masalalar yuzasidan aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishlariga xizmat qilmoqda.

Toshkent shahridagi harbiy qismda O'zbekiston Notarial palatasi xodimlari "Yuksalish" harakati ko'magida o'tkazgan tadbirda ishtirokchilarga onlayn notarial harakatlar, ko'chmas mulkni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi, vasiyatnoma va ishonchnomalarni tasdiqlash, vorislik masalalari, nikoh shartnomalari va boshqa muhim huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha atroflicha tushuntirishlar berildi.

Davra suhbatlari davomida harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan batafsil javob oldi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari huquqiy bilimlarini kengaytirish, ularga hayotiy muhim masalalarda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilayotgan bu kabi tadbirlar nafaqat ma'naviy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Zero huquqiy savodxonlik bu insonning o'z huquq va majburiyatlarini anglashi, hayotda qonun yo'lidan ish ko'rishi, adolatli qarorlar qabul qilishi demakdir.

TOQQQ matbuot xizmati

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bayramingiz muborak bo'lsin!

*O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati
kengashi jamoasi*

*davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan
Vatanimiz osoyishtaligi yo'lida tun-u kun hushyor turib,
sharaflil va mas'uliyatli xizmat burchini mardonavor ado
etayotgan harbiy xizmatchilarni, ularning oila a'zolari va
yaqinlarini, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga
o'z hissasini qo'shayotgan mudofaaga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti xodimlarini hamda butun
mamlakatimiz ahlini samimiy tabriklaydi.*

*Barchangizga tinchlik-omonlik, baxt-saodat, xonadoningizga,
el-yurtimizga fayz-u baraka tilaymiz!*

***Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo,
aziz xalqimiz omon bo'lsin!***



Ayyomingiz qutlug' bo'lsin!



*O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti Buxoro viloyati kengashi
jamoasi Siz, aziz yurtdoshlarimizni, mamlakatimiz
Qurolli Kuchlari saflarida xizmat qilayotgan barcha
harbiylarni hamda mudofaaga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti tizimida mehnat qilayotgan
hamkasblarini va ularning oila a'zolarini hamda
yaqinlarini mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillik
ayyomi bilan tabriklaydi.*

*Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi samarali
ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin, qadrli
hamyurtlar!*

Eng ulug', eng aziz bayramimiz muborak bo'lsin!

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

SAMARALI natijalar



Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Oqoltin tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlar bandligini ta'minlash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik targ'iboti hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda.

Xususan, yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish borasidagi ishlar shular jumlasidan.

– Bu borada, albatta, mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlab "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tadbirlar rejasi dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Nuriddin Djalilov. – Shu bois ushbu muhim sanaga bag'ishlangan bir qancha ma'naviy-ma'rifiy hamda sport tadbirlari tashkil etildi.

Bundan tashqari, klubda tuman yoshlarining ma'nan yetuk shaxs sifatida kamol topishlariga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Ayni paytda O'STKda faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiya va to'garaklarga 30 nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb qilingan. Sportchi yoshlar, o'z navbatida, nufuzli musobaqalarda yuqori o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. Masalan, o'q otish sporti bo'yicha viloyat musobaqasida ishtirok etgan Gulshodaxon Bozorboyeva sovrinli o'rinni egallab, tumanimiz sharafigi munosib himoya qildi.



"Vatanparvar" tashkiloti Oqoltin tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi barcha vatandoshlarimizni mamlakatimiz Mustaqilligining 34 yillik ayyomi bilan samimiy tabriklaydi. Doim yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin! Bayramingiz qutlug' bo'lsin, aziz yurtdoshlar!"



Kezi kelganda, ta'kidlash joizki, shu kunlarda jamoa sa'y-harakati va viloyat kengashi ko'magi bilan tuman o'quv sport-texnika klubi moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlashda samarali natijalarga erishilyapti. Zamon talabi asosida o'quv binosidagi sinfxonalar ta'mirlanib, qayta jihozlandi. Amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish va tinglovchilarga qulaylik yaratish maqsadida yangi zamonaviy rusumdagi yengil va yuk o'quv avtomobillari xarid qilindi.

Albatta, erishilayotgan yutuqlarda Jamshid Nurmatov, Javohir Hafizov, Ravshan Irisaliyev, Erkin Qo'shimov, Kamol Islomov, Farruh Zokirov kabi jonkuyar xodimlarning qo'shayotgan munosib hissasini e'tirof etish joiz.

Ayni paytda klubda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, haydovchilar malakasini oshirish borasida ham yaxshi natijalarga erishilyapti. Shu kunlarda bu yerda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari faoliyat yuritmoqda.

Muhimi, klubda yoshlarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

Akbar ALI

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



EZGU G'OYA, EZGU MAQSAD

mujassam



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Kitob tumani “Makrid” o‘quv sport-texnika klubida yoshlar uchun barcha kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bois bu yerda ularning jismoniy, ma’naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo‘lishiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.



Ayniqsa, bu jarayon harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezu g'oyani o'zida mujassam etgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda o'z ifodasini topmoqda. Negaki bunday sa'y-harakatlar zamirida yoshlar qalbidagi vatanparvarlik g'oyalari kamol toptirishdek ezu maqsad mujassam.

– Asosiy maqsad, albatta, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarini bugungi kun talabi asosida olib borish. Shu bois ham hamkor tashkilotlar ko'magida bir qancha ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil etilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Jasur Temirov. – Bu borada tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi, davlat va jamoat tashkilotlari bilan mustahkam hamkorligimiz yutuqlar poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu kunlarda klubda yoshlar sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun ham alohida e'tibor qaratilib, zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bu yerda "Avtokross", "Duatlon", "Karting" kabi to'garaklar faoliyat ko'rsatib, ularda ellikka yaqin iqtidorli yosh muntazam shug'ullanib kelmoqda. O'z navbatida, havaskor sportchi-yoshlar o'rtasida tuman va viloyat miqyosida turli musobaqalar tashkil etilmoqda. Joriy yilning o'tgan oylari mobaynida o'nga yaqin sport musobaqasi o'tkazildi. Shuningdek, kitoblik yoshlar respublika miqyosidagi avtokross musobaqalarida faol ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallamoqda. Masalan, shu yilning 22–25-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan "Rally Muynak–2025" musobaqasida klub boshlig'i Jasur Temirov faxrli 2-o'rinni egallab, shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarildi.



Ayni paytda tashkilotda “B”, “BC”, “CE” toifali haydovchilar tayyorlash, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish ishlari ham namunali tashkil etilgan. O‘tiladigan har bir fan, maxsus nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlar uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bundan tashqari, klubdagi tajribali o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar mahoratlaridan samarali foydalanish orqali o'quv mashg'ulotlarining qiziqarli va mazmunli olib borilishi ta'minlanyapti. Natijada haydovchilik sir-asrorlarni qunt bilan o'rganayotgan tinglovchilar soni ortib bormoqda. Birgina joriy yilning o'tgan oylari mobaynida tashkilot o'quv kurslarini ikki yuz nafarga yaqin haydovchilikka nomzod muvaffaqiyatli bitkazib, yo'llanma oldi.

Akbar ALLAMURODOV



*“Vatanparvar” tashkiloti Kitob tumani
“Makrid” o‘quv sport-texnika klubi
jamoasi Siz, aziz yurtdoshlarimizni
mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillik
bayrami bilan chin dildan muborakbod
etadi. Barchangizga tinchlik-omonlik,
baxt-u saodat, xonadoningizga fayz-u
baraka tilaymiz!*

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

"Vatan uchun yashaylik!"

"VATANPARVAR" MUXBIRI

nufuzli tanlovda e'tirof etildi

Mustaqillik milliy o'zligimiz, iftixorimiz va kelajakka bo'lgan ishonchimiz ramzi sifatida qalbimizda mustahkam o'rin egallagan. Bu ne'matning chinakam qimmatini esa uni asrab-avaylayotgan, Vatan himoyasi yo'lida muqaddas saflarda turgan mard va jasur harbiylarimiz fidoyiligida namoyon bo'ladi.

Yurt posbonlari safidan yetishib chiqayotgan iste'dodli ijodkorlar ham milliy matbuotimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgani, vatanparvarlik tuyg'ularini asarlari orqali ifoda etib, mustaqillik qadrini targ'ib qilayotgani quvonarli holdir. "Vatanparvar" gazetasi esa ana shunday fidoyi va iqtidorli xodimlari bilan faxrlanish barobarida ularni doim qo'llab-quvvatlab keladi.

Bu yil Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan an'anaviy "Vatan uchun yashaylik!" respublika tanlovi ijodkorlar uchun haqiqiy ma'naviy bayramga aylandi. Tanlovda "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ulug' g'oyani ifoda etgan asarlar alohida e'tirof etildi.

Ushbu nufuzli tanlovda "Vatanparvar" gazetasi muxbiri, shoir va jurnalist Muhammadali G'afforov rag'batlantiruvchi mukofotga sazovor bo'ldi. Uning she'rlari va publitsistik maqolalarida vatanparvarlik, iftixor va jasorat tuyg'ulari yuksak badiiy saviyada ifoda etilgani hakamlar tomonidan munosib baholandi.

Muhammadalining ijodi zamonaviy adabiyotimizda xalq ruhiyatiga uyg'unligi, teran kechinmalarni samimiy bayon etishi bilan ajralib turadi. Uning "Birinchil kitobim" loyihasi doirasida nashr etilgan "Ishq safari" to'plami samimiy tuyg'ularning nozik ifodasi sifatida yuraklardan joy oldi, desak, adashmagan bo'lamiz.

Yosh ijodkorning "Vatan uchun yashaylik!" tanlovida qo'lga kiritgan yutug'i bugungi kun ijodkor yoshlarining izlanish va mehnatlari zoye ketmayotganligining yaqqol isbotidir. Zero har bir mukofot ijodkorni quvvatlantiradi, yanada yuksak pog'onalarni zabt etishga undaydi.

"Vatanparvar" gazetasi tahririyati jamoasi hamkasbimiz Muhammadali G'afforovni ushbu munosib e'tirof bilan chin yurakdan qutlaydi va unga bardavom ijod, sog'liq hamda yuksak parvozlar tilab qoladi.

TAHRIRIYAT



*Qushlar yulduzlarga yaqinroq ekan,
Quyosh men ko'rgandan yorqinroq ekan,
Har maysa, har giyoh, har bitta daraxt,
O'ylasam, bizlardan baxtliroq ekan.*

*Cho'g' deb ushlaganim yonar qurt ekan,
Zabardast bilganim joni mo'rt ekan.
Donoga har qarich tuproq muqaddas,
Nodonga pul topgan yeri yurt ekan.*

*Xullas, shunday ekan, ochmi, to'q ekan,
Men kelgan chamanda qumri yo'q ekan.
Dilini og'ritmay, dedim kimsaning,
Ko'ngliga qarasam, ko'ngli yo'q ekan.*

BIR QADAH SO'Z

*Bir qadah so'z keltirdim sizga,
Shudringlar sepilgan so'z keltirdim.
Iching.
Hovuringiz bosilsin!
Qoshlari qaldirg'och qanotli qizga,
Oshiq yuragidan sevgi keltirdim.*

*Tong keltirdim!
Uyg'oning,
Bolanzizni o'ping peshonasidan.
Quyosh botishini kuzating.
Ma'shuq yelkasiga suyanib,
Ona tizzasiga bosh qo'yib, kuzating ufqni!*

*Maysani keltirdim!
Tizza bo'yi maysa,
Haydang, ko'nglingizni shu maysazorga.
Bir juft qizg'aldoqni quchoqlab yoting,
Yetim qo'zichoqqa non bering qo'lda,
Ko'zlari yoshlangan oyni yupating.*

*Men sizga tonglarni,
kunlarni keltiray,
Keltiray, jannatning xush iforlarin.
Hovuchingiz tuting,
sevgi to'ldiray,
Oppoq bo'salar-la siylang yorlarni.*

*Faqat yashang!
Kutmang, olmaning iltifotini.
Xudoning marhamati shu!
Ketmang, onangizni tashlab safarga.
Men barini sizga keltiraman,
Siz esa yashang,
Yashang,
iltimos!*

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar",
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

VATANPARVAR



**MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI**

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6011
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 318 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya